ISSN 218-8088

XALQ TA'LIMI AXBOROTNOMASI

"XALQ TA'LIMI AXBOROTNOMASI" JURNALI

Muassis:
"Xalq ta'limi" jurnali tahririyati DUK

PUBLIC EDUCATION BULLETIN

"PUBLIC EDUCATION BULLETIN" JOURNAL

2025

1-son
(Yanvar-Fevral)

Jurnal 2015-yildan chiqa boshlagan

(O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2014-yil 17-maydagi
137-sonli buyrug'i bilan tashkil etilgan)

TOSHKENT

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining “Qoraqalpog‘iston Respublikasi Nukus shahar 46-sonli ayrim fanlar chuqur o‘qitiladigan sinflari mavjud umumiy o‘rta ta’limi maktabida Prezident maktablari tajribasini joriy etish to‘g‘risida”gi **2024-yil 12-sentabr, 306-son buyrug‘i..... 4**

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning barqarorligini ta’minlash, sifati va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 16-avgustdagi PF-111-sonFarmoni ijrosi haqida”gi **2024-yil 12-sentabr, 307-son buyrug‘i.....6**

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining “Malaka oshirish ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini xorijiy oliy ta’lim tashkilotlariga maqsadli ravishda malaka oshirishga yuborish to‘g‘risida”gi **2024-yil 12-sentabr, 308-son buyrug‘i.....9**

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentabrdagi “Kanbag‘allikni qisqartirish va aholini turmush farovonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to‘g‘risida” PF-143-son Farmoni va “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-330-son qarori ijrosi haqida”gi **2024-yil 25-sentabr, 313-son buyrug‘i.....19**

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimidagi umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilari o‘rtasida “Ijod yoshlari” tanlovini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida”gi **2024-yil 26-sentabr, 314-son buyrug‘i.....26**

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 30-sentabrdagi PF-152-son Farmoni ijrosi haqida”gi **2024-yil 3-oktabr, 323-son buyrug‘i .37**

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining “Inklyuziv ta’lim joriy qilingan umumiy o‘rta ta’lim maktabla-

rida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning kasbiy mahoratini oshirish to‘g‘risida”gi **2024-yil 22-oktabr, 344-son buyrug‘i.....70**

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining “Maktabgacha va maktab ta’limi tizimida malaka oshirishning “vazirlik - malaka oshirish muassasasi - ta’lim tashkiloti” vertikal tizimini joriy etish haqida”gi **2024-yil 24-oktabr, 347-son buyrug‘i 75**

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining ayrim buyruqlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi **2024-yil 4-noyabr, 355-son buyrug‘i 85**

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining “Maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim dasturlari uzviyligini ta’minlash hamda maktabgacha ta’lim tashkilotlariga sifatli metodik xizmat ko‘rsatishni tashkil etish to‘g‘risida”gi **2024-yil 8-noyabr, 360-son buyrug‘i 98**

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘quvchi-yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 15-noyabrdagi PQ-393-son qarori ijrosi haqida”gi **2024-yil 22-noyabr, 373-son buyrug‘i.....103**

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida jismoniy tarbiya fani o‘qitilishini tubdan takomillashtirish hamda ushbu fan o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatini rivojlantirish chora- tadbirlari to‘g‘risida”gi 2024-yil 15-noyabrdagi PQ-392-son qarori ijrosi haqida”gi **2024-yil 25-noyabr, 374-son buyrug‘i 107**

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim sohasida xususiy sektor ishtirokini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 22-noyabrdagi PQ-403-son qarori ijrosi haqida”gi **2024-yil 28-noyabr, 382-son buyrug‘i.....110**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Nukus shahar 46-sonli ayrim fanlar chuqur o‘qitiladigan sinflari mavjud umumiy o‘rta ta’limi maktabida Prezident maktablari tajribasini joriy etish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida” 2022-yil 11-maydagi PF-134-sonli hamda “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 26-maydagi PF-79-sonli Farmonlarida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman:**

1. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi (G.Kojaboyeva):

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Nukus shahar 46-sonli ayrim fanlar chuqur o‘qitiladigan sinflari mavjud umumiy o‘rta ta’lim maktabi (keyingi o‘rinlarda — Nukus shahar 46-sonli maktab) da 5-sinfdan har birida 20 nafar o‘quvchidan iborat bittadan o‘zbek va qoraqalpoq tillarida o‘qitiladigan sinfni tashkil etish orqali ularda Kembrij dasturi asosida o‘qitish tizimini bosqichma-bosqich joriy etsin.

Bunda, aniq va tabiiy fanlarni Kembrij ta’lim dasturi asosida o‘qitishga alohida e’tibor qaratsin;

mahalliy budjet mablag‘lari hisobidan biologiya, kimyo va fizika xonalarini zamonaviy laboratoriya jihozlari bilan ta’minlash;

maktabda aniq va tabiiy fanlar fanlarni chuqur o‘qitish uchun xorijiy pedagoglarni jalb etish choralarini ko‘rsin;

bir hafta muddatda Nukus shahar 46-sonli maktabda xalqaro tan olingan Kembrij dasturi asosida o‘qitish tizimi joriy etiladigan sinflarining o‘quv rejasi va taqvim mavzu rejalarini ishlab chiqib kelishish uchun Ixtisoslashgan ta’lim muassasalari agentligiga kiritsin.

2. O‘quv jarayonini metodik ta’minlash va darsliklar boshqarmasi (D.Norboyeva) Kembrij ta’lim dasturini joriy qilish maqsadida mazkur fanlarning dasturlarini (darsligi, oquvchi

mashq daftari, o‘qituvchi kitoblari) xalqaro tashkilotdan xarid qilish va amaliyotga joriy etish choralarini ko‘rsin.

3. Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi (A.Ubbiyev) ga:

Nukus shahar 46-sonli maktabda Kembrij dasturi asosida o‘qitish tizimi joriy etiladigan 5-sinf o‘quvchilarim saralab olish maqsadida xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda nazorat materiallarini tayyorlash va sinov ishlarini o‘tkazish;

o‘qituvchilar uchun Kembrij dasturi asosida kasbiy mahoratni oshirish bo‘yicha seminarlar tashkil etish;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi buyurtmasiga asosan malakali xorijiy pedagoglar hamda ingliz tili sinflarida dars beradigan aniq va tabiiy fanlar o‘qituvchilarini suhbatdan o‘tkazish;

chorak va yil yakuni bo‘yicha olinadigan nazorat materiallarini tuzilishi va Kembrij dasturini sifatli tatbiq etilishini nazoratga olish vazifalari yuklatilsin.

4. Devonxona (H.Raximbayeva) mazkur buyruqni bir kun muddatda vazirlikning tegishli tarkibiy bo’linmalari, Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligiga yetkazsin.

5. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o‘rinbosari U.Sharifxodjayevga yuklatilsin.

Vazir **X.Umarova**

Toshkent sh.,
2024-yil 12-sentabr,
306-son

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning barqarorligini ta’minlash, sifati va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 16-avgustdagi PF-111-son Farmoni ijrosi haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning barqarorligini ta’minlash, sifati va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 16-avgustdagi PF-111-son Farmoni (keyingi o‘rinlarda - Farmon) hamda Vazirlar Mahkamasining 12/1-2677-son topshirig‘i ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman:**

1. Farmon vazir o‘rinbosarlari, markaziy apparatning barcha tarkibiy bo‘linmalari, hududiy maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlari, vazirlik tasarrufidagi agentliklar, tashkilot va muassasalar direktorlari tomonidan rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Farmon bilan:

a) 2024-yil 1-oktabrdan boshlab, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tartibga solish ta’sirini baholashning (keyingi o‘rinlarda - baholash) soddalashtirilgan va kengaytirilgan tartibi joriy etilganligi;

b) Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi tuzilmasida Bosh vazir kotibiyati tarkibida 3 ta shtat birligidan iborat Tartibga solish ta’sirini baholash va korrupsiyaga qarshi ekspertiza bo‘limi tashkil etilganligi;

v) normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda, shu jumladan, baholashda, ma’lumot tig‘ish (so‘rov, focus guruh muhokamalari va boshqa) jarayonlariga ilmiy tashkilotlar hamda nodavlat notijorat tashkilotlari keng jalb qilinishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Strategik rivojlantirish, xalqaro reytinglar va Jahon savdo tashkilot masalalari bilan ishlash boshqarmasi (O.Rahmatullayev) ga quyidagi qo‘shimcha vazifalar yuklansin:

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi (keyingi o‘rinlarda

- Vazirlik)ning norma ijodkorligi faoliyatiga “aqlli tartibga solish” vositalarini keng joriy etish;

Vazirlik tomonidan ishlab chiqilishi rejalashtirilayotgan qonunchilik hujjatlari loyihalari bo‘yicha ma’lumotlarni shakllantirish va ularni Rejalashtirish dasturiga kiritish;

normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalari baholashdan o‘tkazilishini ta’minlash, shuningdek, tashkilotning norma ijodkorligi faoliyatiga, shu jumladan, baholash yuzasidan uslubiy yordam ko‘rsatish;

qonunchilik hujjatlari ijrosi monitoringini o‘tkazish, shu jumladan, huquqni qo‘llash amaliyotini o‘rganish, tahlil qilish, uning barqarorligini ta’minlash bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish.

4. Farmon muvofiq quyidagilar:

Strategik rejalashtirish va metodologiya bo‘yicha tarkibiy bo‘linmalar, qoida tariqasida, tegishli soha mutaxassislari, iqtisodchi, huquqshunos mutaxassisligiga ega xodimlar bilan jamlanishi hamda ularning har ikki yilda kamida bir marta majburiy ravishda malakasini oshirish;

Strategik rejalashtirish va metodologiya bo‘yicha tarkibiy bo‘linmalar xodimlari malakasini oshirishni tashkil etish Adliya vazirligi tomonidan amalga oshirilishi inobatga olinsin.

5. Strategik rivojlantirish, xalqaro reytinglar va Jahon savdo tashkilot masalalari bilan ishlash boshqarmasi (O.Rahmatullayev):

a) 2025-yildan boshlab ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi, huquqiy normalarni belgilovchi normativ-huquqiy hujjat kuchga kirgandan so‘ng:

normativ-huquqiy hujjatni qabul qilish maqsadlariga erishilishini tahlil qilish, uning ijrosini ta’minlash hamda baholash uchun statistik ma’lumotlarni yig‘ish maqsadida har yili monitoring olib borisin;

normativ-huquqiy hujjatni qabul qilish maqsadlariga erishilganligi va samaradorligini aniqlash maqsadida qonunosti hujjatlarini har uch yilda baholashdan o‘tkazsin;

qabul qilingan normativ-huquqiy hujjat monitoringi va baholash natijalarini majburiy ravishda Adliya vazirligiga taqdim etisin;

b) 2024-yil 1-oktabrdan boshlab Vazirlik tomonidan ishlab chiqiladigan qonun loyihalari bo‘yicha ushbu sohadagi davlat ekspertlik ilmiy-tadqiqot muassasalari xulosalari majburiy

ravishda olinishini ta’minlasin (qonunchilik hujjatlarini o‘zaro muvofiqlashtirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish hamda o‘z kuchini yo‘qotgan deb topishni nazarda tutuvchi loyihalar bundan mustasno);

v) davlat ekspertlik ilmiy-tadqiqot muassasalari xulosalari va muhokama natijalari bo‘yicha materiallar loyihani Adliya vazirligi hamda hujjatni qabul qiluvchi organlarga majburiy tartibda kiritilishini nazoratga olsin.

6. Farmonga muvofiq quyidagi xarajatlar Vazirlikning budjetdan tashqari mablag‘lari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshirilsin:

normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini baholashdan o‘tkazish jarayoniga ilmiy tashkilotlar, maslahat xizmatini ko‘rsatadigan tashkilotlar va soha ekspertlarini jalb qilish bilan bog‘liq xarajatlar;

respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining baholash uchun mas’ul xodimlarining malakasini oshirib borish bilan bog‘liq xarajatlar.

7. Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi (I. Sharipov) o‘n kun muddatda Strategik rivojlantirish, xalqaro reytinglar va Jahon savdo tashkilot masalalari bilan ishlash boshqarmasi nizomiga hamda lavozim yo‘riqnomalariga Farmondan kelib chiquvchi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishini ta’minlasin.

8. Devonxona (H.Rahimboyeva) o‘rnatilgan tartibda ushbu buyruqni vazirlikning barcha tarkibiy bo‘linmalari va agentliklar, tashkilotlar va muassasalarga yetkazsin.

9. Ushbu buyruqning ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2024-yil 12-sentabr,
307-son

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Malaka oshirish ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini xorijiy oliy ta’lim tashkilotlariga maqsadli ravishda malaka oshirishga yuborish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-son qarori ijrosini ta’minlash hamda malaka oshirish ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini xorijiy oliy ta’lim tashkilotlariga maqsadli ravishda malaka oshirishga yuborish maqsadida **buyuraman:**

1. Quyidagilar:

A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti hamda Pedagogik mahorat markazlari (keyingi o‘rinlarda - Malaka oshirish ta’lim muassasalari)ning rahbar va pedagog kadrlarini xorijiy oliy ta’lim tashkilotlariga maqsadli ravishda malaka oshirishga yuborish uchun rahbar va pedagog kadrlarni saralash tartibi 1-ilovaga muvofiq;

2025-yildan boshlab har yili malaka oshirish ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini xorijiy oliy ta’lim tashkilotlariga maqsadli ravishda malaka oshirishga yuborish bo‘yicha reja-jadval 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Pedagog kadrlarni tayyorlash va kasbiy rivojlantirish boshqarmasi (M.Yuldashev), Malaka oshirish ta’lim muassasalariga:

2024-yil 15-dekabrga qadar 2025-yilda xorijiy oliy ta’lim tashkilotlariga maqsadli ravishda malaka oshirishga yuborish uchun saralab olingan rahbar va pedagog kadrlarning ro‘yxatini shakllantirish;

har yili 1-iyunga qadar rahbar va pedagog kadrlarni malaka oshirishga yuborish bo‘yicha xorijiy oliy ta’lim tashkilotlari bilan tegishli kelishuvga erishish;

har yili 30-sentabrga qadar rahbar va pedagog kadrlarini malaka oshirishga yuborish bo‘yicha kelgusi yillarga mo‘ljallangan reja-jadvalni shakllantirish;

har yili 30-oktabrga qadar rahbar va pedagog kadrlarini xorijda malaka oshirishga yuborish bo‘yicha saralash tashkil etilishini ta’minlash;

saralab olingan rahbar va pedagog kadrlarni reja-jadval asosida malaka oshirishga yuborish vazifalari yuklatilsin.

4. Axborot xizmati (D.Sobirova) xorijiy oliy ta’lim tashkilotlarida malaka oshirish jarayonlarini vazirlikning rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari hamda ommaviy axborot vositalarida keng yoritilishini ta’minlasin.

5. Devonxona (H.Raximbayeva) bir kun muddatda ushbu buyruqni markaziy apparatning tarkibiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlariga yetkazsin.

6. Ushbu buyruqning bajarilishini nazorat qilish vazir o‘rinbosari S.Radjabov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2024-yil 12-sentabr,
308-son

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2024-yil 12-sentabrdagi
308-son buyrug‘iga
1-ILOVA

Malaka oshirish ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini xorijiy oliy ta’lim tashkilotlariga maqsadli ravishda malaka oshirishga yuborish uchun rahbar va pedagog kadrlarni saralash TARTIBI

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Tartib A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti hamda hududiy pedagogik mahorat markazlarining (keyingi o‘rinlarda - Malaka oshirish ta’lim muassasalari) rahbar va pedagog kadrlarini xorijiy oliy ta’lim tashkilotlarga maqsadli ravishda malaka oshirishga yuborish uchun saralash tartibini belgilaydi.

2. Malaka oshirish ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarning malaka oshirishi rejalashtirilayotgan xorijiy oliy ta’lim ta’lim muassasasi (keyingi o‘rinlarda - Xorijiy ta’lim muassasasi) bilan kelishuvga erishadi.

Mazkur kelishuvda xorijiy ta’lim muassasasi tomonidan malaka oshirishga yuboriladigan rahbar va pedagog kadrlarga qo‘yiladigan talablar va yaratiladigan sharoitlar, malaka oshirish muddatlari, malaka oshirishni moliyalashtirish shartlari va manbalari belgilanadi.

Rahbar va pedagog kadrlar xorijiy ta’lim muassasasidagi davomiyligi 70 soatdan 100 soatgacha bo‘lgan malaka oshirish kurslariga yuboriladi.

3. Malaka oshirish ta’lim muassasalari xorijiy ta’lim muassasasi bilan kelishuv shartlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’lim vazirligini (keyingi o‘rinlarda - Vazirlik) xabardor qiladi va Vazirlikdan rozilik oladi.

Vazirlik malaka oshirish ta’lim muassasalari rahbar va

pedagog kadrlarini malaka oshirishga yuborish bo‘yicha xorijiy ta’lim muassasasini belgilab berishi mumkin.

4. Rahbar va pedagog kadrlarni xorijiy ta’lim muassasasiga malaka oshirishga yuborish uchun saralash 1-ilovadagi Rahbar va pedagog kadrlarni xorijiy ta’lim muassasasiga malaka oshirishga yuborish uchun Saralash komissiyasi (keyingi o‘rinlarda - Saralash komissiyasi) tomonidan amalga oshiriladi.

2-bob. Saralash ishtirokchilarining hujjatlarini qabul qilish

5. Saralash o‘tkazilishi haqidagi e’lon uni o‘tkazish muddatidan kamida bir oy oldin malaka oshirish ta’lim muassasalarining rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalariga joylashtiriladi.

Saralashni o‘tkazish haqidagi e’londa quyidagi ma’lumotlar bo‘lishi zarur:

saralashni o‘tkazish muddatlari va joyi;

arizalarni qabul qilish muddati va joyi;

saralash ishtirokchilariga qo‘yiladigan talablar;

zarur hujjatlar ro‘yxati;

bog‘lanish uchun telefon raqami va elektron manzillar.

6. Saralashda ishtirok etish istagini bildirgan rahbar va pedagog kadrlarning hujjatlari malaka oshirish ta’lim muassasalarining Inson resurslarini rivojlantirish bo‘yicha bosh mutaxassisi tomonidan qabul qilinadi.

7. Saralashda ishtirok etish istagini bildirgan rahbar va pedagog kadrlar belgilangan shakldagi ariza va xorijiy ta’lim muassasasi tomonidan talab etilgan hujjatlarni taqdim etadilar.

3-bob. Saralashni o‘tkazish

8. Xorijiy ta’lim muassasasiga malaka oshirishga yuboriladigan rahbar va pedagog kadrlarni saralash ikki bosqichda o‘tkaziladi.

9. **Birinchi bosqichda** ishtirokchilarning xorijiy ta’lim muassasasi bilan erishilgan kelishuv talablariga mosligi hamda malaka oshirish kursi tashkil etiladigan tilni bilishini aniqlash bevosita malaka oshirish ta’lim muassasasi tomonidan o‘rganiladi.

Mazkur bosqich talablariga mos kelgan rahbar va pedagog kadrlarning hujjatlari malaka oshirish ta’lim muassasasi rahbari

imzolagan tavsiyanoma bilan Saralash komissiyasiga taqdim etiladi.

Rahbar va pedagog kadrlarning besh yilda bir martadan ortiq malaka oshirish ta'lim muassasasi hisobidan xorijga malaka oshirishga yuborilishiga yo'l qo'yilmaydi.

10. **Ikkinchi bosqichda** Saralash komissiyasi taqdim etilgan ishtirokchilarning hujjatlarini tahlil qiladi, ular bilan suhbat qiladi va eng munosib deb topilganini malaka oshirishga yuborish bo'yicha komissiya qarorini qabul qiladi.

Saralash jarayonida ishtirokchilar bilan suhbat davlat tilida olib boriladi. Ularning til bilish ko'nikmalarini aniqlash maqsadida malaka oshirish kursi tashkil etiladigan tilda suhbat olib borilishi ham mumkin.

11. Saralash komissiyasi ishtirokchilarning natijalari qayd etilgan qarorni Vazirlikka taqdim etadi.

12. Vazirlik Saralash komissiyasi qaroriga asosan xorijiy ta'lim muassasalariga malaka oshirishga yuboriladigan rahbar va pedagog kadrlar ro'yxatini tasdiqlaydi.

4-bob. Saralash natijalari yuzasidan murojaatlarni ko'rib chiqish tartibi

13. Saralash jarayoni natijalari yuzasidan berilgan murojaatlarni ko'rib chiqish 2-ilovadagi apellyatsiya komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

Apellyatsiya komissiyasi ishida a'zolarning yarmidan ko'pi ishtirok etgan taqdirda vakolatli hisoblanadi.

14. Saralash komissiyasi qaroridan norozi bo'lgan ishtirokchi saralash natijalari e'lon qilingan kundan boshlab uch kun mobaynida apellyatsiya komissiyasiga yozma yoki elektron ravishda murojaat qilishi mumkin.

Apellyatsiya komissiyasi murojaat ko'rib chiqish natijasiga ko'ra Saralash komissiyasining qarorini o'zgartirishi yoki o'zgarishsiz qoldirishi mumkin.

Apellyatsiya komissiyasi murojaat ko'rib chiqilgan kundan boshlab uch ish kuni ichida ko'rib chiqilganligi to'g'risida murojaatchini xabardor qiladi.

5-bob. Xorijiy ta’lim muassasalarida malaka oshirishni moliyalashtirish

15. Xorijiy ta’lim muassasalarda malaka oshirish ta’lim muassasalarining tegishli maqsadlar uchun ajratilgan budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladi.

Xorijiy ta’lim muassasalarda malaka oshirish jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari, xalqaro tashkilotlarning grantlari va texnik ko‘maklashish mablag‘lari, shuningdek, kelishuvga binoan xorijiy ta’lim muassasasining mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilishi mumkin.

16. Mablag‘lar ushbu Tartib asosida saralashdan o‘tgan rahbar va pedagog kadrlarga quyidagi xarajatlarni qoplash uchun ajratiladi:

rahbar va pedagog kadrlarning xorijiy ta’lim muassasasida malaka oshirish kurslarida ta’lim olishi uchun to‘lanadigan mablag‘lar;

xorijiy ta’lim muassasasiga malaka oshirishga yuboriladigan rahbar va pedagog kadrlarning viza xarajatlari;

rahbar va pedagog kadrlarning malaka oshirish joyiga yetib borishi va qaytib kelishi uchun transport xarajatlari (taksidan tashqari);

rahbar va pedagog kadrlarning malaka oshirish davrida yashash uchun (turar joy ijarasi) va sutkalik xarajatlari, shuningdek, safar davomida yuzaga kelgan ko‘zda tutilmagan xarajatlar.

17. Xorijiy ta’lim muassasasi bilan kelishuviga binoan yuqorida qayd etilgan xarajatlarning bir qismi malaka oshirish ta’lim muassasasi tomonidan va qolgan qismi Xorijiy ta’lim muassasasi tomonidan moliyalashtirilishi mumkin.

6-bob. Yakuniy qoidalar

18. Mazkur talablarning buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javob beradi.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2024-yil 12-sentabrdagi
308-son buyrug‘iga
2-ILOVA

2025-yildan boshlab har yili malaka oshirish ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini xorijiy oliy ta’lim tashkilotlariga maqsadli ravishda malaka oshirishga yuborish bo‘yicha
REJA-JADVAL

T/r	Malaka oshirish ta’lim muassasasi nomi	Malaka oshirishga yuboriladiganlar soni* Rahbar kadrlar	Shundan:	
			Pedagog xodimlar	
1.	A.Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy instituti	4	1	3
2.	Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti	3	1	2
3.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Pedagogik mahorat markazi	3	1	2
4.	Andijon viloyati Pedagogik mahorat markazi	3	1	2
5.	Buxoro viloyati Pedagogik mahorat markazi	3	1	2
6.	Jizzax viloyati Pedagogik mahorat markazi	3	1	2
7.	Qashqadaryo viloyati Pedagogik mahorat markazi	3	1	2
8.	Navoiy viloyati Pedagogik mahorat markazi	3	1	2
9.	Namangan viloyati Pedagogik mahorat markazi	3	1	2
10.	Samarqand viloyati Pedagogik mahorat markazi	3	1	2
11.	Sirdaryo viloyati Pedagogik mahorat markazi	3	1	2
12.	Surxondaryo viloyati Pedagogik mahorat markazi	3	1	2

13.	Farg'ona viloyati Pedagogik mahorat markazi	3	1	2
14.	Toshkent viloyati Pedagogik mahorat markazi	3	1	2
15.	Xorazm viloyati Pedagogik mahorat markazi	3	1	2
	Jami:	**46**	**15**	**31**

Izoh: Malaka oshirish ta'lim muassasalari mazkur reja ko'rsatkichlaridan tashqari rahbar va pedagog kadrlarni xorijiy oliy ta'lim muassasalariga malaka oshirishga yuborishi mumkin.

Malaka oshirish ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini xorijiy oliy ta’lim tashkilotlariga maqsadli ravishda malaka oshirishga yuborish uchun rahbar va pedagog kadrlarni saralash tartibiga
1-ILOVA

Rahbar va pedagog kadrlarni xorijiy ta’lim muassasiga malaka oshirishga yuborish uchun

SARALASH KOMISSIYASI TARKIBI

1. S.B.Radjabov - Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri o‘rinbosari, komissiya raisi

2. M.A.Yuldashev - Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi Pedagogik ta’lim va uzluksiz kasbiy rivojlantirish boshqarmasi boshlig‘i, komissiya raisi o‘rinbosari

3. Sh.N.Muxamedov - Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Maktabgacha ta’lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish departamenti direktori, a’zo

4. A.A.Ismailov - A.Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy instituti rektori, a’zo

5. D.T.Davidova - Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi direktori, a’zo

6. X.M.Burxonxo‘jaeva - A.Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy instituti prorektori, a’zo

7. S.R.Yaxyayev - A.Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy instituti Xalqaro hamkorlik bo‘limi boshlig‘i, komissiya kotibi

Malaka oshirish ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini xorijiy oliy ta’lim tashkilotlariga maqsadli ravishda malaka oshirishga yuborish uchun rahbar va pedagog kadrlarni saralash tartibiga
2-ILOVA

Saralash jarayoni natijalari yuzasidan berilgan murojaatlarni ko‘rib chiqish boyicha

APELLATSIYA KOMISSIYASI TARKIBI

1. A.A.Baxramov - Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi Pedagogik ta’lim va uzluksiz kasbiy rivojlantirish boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari, komissiya raisi

2. N.Sh.Kuchkarova - Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi Pedagogik ta’lim va uzluksiz kasbiy rivojlantirish boshqarmasi bosh mutaxassisi, a’zo

3. X.X.Botirov - A.Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy instituti bo‘lim boshlig‘i, a’zo

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentabrdagi “Kanbag‘allikni qisqartirish va aholini turmush farovonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to‘g‘risida” PF-143-son Farmoni va “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-330-son qarori ijrosi haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentabrdagi “Kambag‘allikni qisqartirish va aholini turmush farovonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to‘g‘risida” PF-143-son Farmoni va “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-330-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentabrdagi PF-143-son Farmoni (keyingi o‘rinlarda — Farmon) va PQ-330-son qarori (keyingi o‘rinlarda — Qaror) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturini (keyingi o‘rinlarda — Dastur) amalga oshirish bo‘yicha Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining chora-tadbirlar rejasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Quyidagilar:

2024-2025-yillarda aholini kambag‘allikdan chiqarishning yo‘nalishlar va hududlar kesimidagi maqsadli ko‘rsatkichlari (keyingi o‘rinlarda - Maqsadli ko‘rsatkichlar) tasdiqlanganligi;

Dastur 2024-yil 1-noyabrdan boshlab “Kambag‘al oilalar uchun yettita imkoniyat va mas’uliyat” tamoyili asosida, jumladan ta’lim olish va kasb-hunar o‘rganish maqsadida 2024-2025-yillarda kambag‘al oilalar farzandlarining maktabgacha ta’lim bilan qamrov darajasini 80 foizga yetkazish, oilaning kamida bitta farzandini xorijiy tillarga, kasb-hunarga yoki mutaxassislikka o‘qitish, bitta farzandi, xususan, qiz farzandining oliy ma’lumotga

ega bo‘lishi uchun sharoit yaratish, bolalarni kompyuter savodxonligiga o‘rgatish, axborot texnologiyalari va dasturlash bo‘yicha o‘quv kurslarida o‘qishi uchun sharoit yaratish, shu jumladan, maktablarda to‘garaklar tashkil etish belgilanganligi;

2025-yil 1-yanvardan boshlab kambag‘al oilalar farzandlarini davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlariga imtiyozli asosda qabul qilinishi belgilanganligi inobatga olinsin.

4. Axborot tahlil va ijro intizomi boshqarmasi (S.Obidov):

a) Maktabgacha ta’lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish departamenti (Sh.Muxamedov), Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish boshqarmasi (Sh.Temirova), O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish bo‘limi (A.Mamadaliyev), AKTni joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi (R.Musurmonov) bilan birgalikda 20 kun muddatda Vazirlikning funksional vazifasidan kelib chiqib, Dasturning tegishli yo‘nalishlari bo‘yicha belgilangan imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarish va maqsadli ko‘rsatkichlarga erishishga qaratilgan “Kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha sohaviy yo‘l xarita”ni ishlab chiqib, Vazirlar Mahkamasiga kiritsin;

b) Soha infratuzilmasini rivojlantirish departamenti (F.Kushnazarov), Moliya-iqtisod departamenti (I.Siradjev) bilan birgalikda “O‘zbekiston-2030” strategiyasi doirasida 2025-yil uchun ishlab chiqiladigan davlat dasturi “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi, hududlar va tarmoqlarni rivojlantirish dasturlari bilan uyg‘unlikda ishlab chiqilishini ta’minlasin.

Bunda bir oy muddatda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasida mahalliy hokimliklar faoliyatining natijadorligini ta’minlash hamda ularning mas’uliyati va hisobdorligini oshirish bilan birga moliyaviy, iqtisodiy va ma’muriy vakolatlari hamda imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan yangicha tizimni nazarda tutuvchi Farmon loyihasiga takliflarni Iqtisodiyot va moliya vazirligiga kiritsin.

5. Maktabgacha ta’lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish departamenti (Sh.Muxamedov), Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish boshqarmasi (Sh.Temirova), O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish bo‘limi (A.Mamadaliyev), AKTni joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi (R.Musurmonov) belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlarga erishish bo‘yicha ishlarni tashkil qilsin.

6. Soha infratuzilmasini rivojlantirish departamenti

(F.Kushnazarov), Maktabgacha ta’lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish departamenti (Sh.Muxamedov), Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish boshqarmasi (Sh.Temirova), O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish bo‘limi (A.Mamadaliyev) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarni xorijiy tillarga o‘qitish tizimi samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 27-iyundagi PQ-239-qaroridan kelib chiqib umumta’lim maktablarining bo‘sh turgan yer va bino-inshootlarida xorijiy tillar, kasb-hunarga o‘qitish va axborot texnologiyalari va dasturlash bo‘yicha o‘quv kurslarini tashkil etish hamda maktabgacha ta’lim bilan qamrov darajasini 2025-yil yakunigacha 80 foizga yetkazish bo‘yicha dasturni 2024-yil 10-noyabrga qadar Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

7. Maktabdan tashqari ta’limni tashkil etish bo‘limi (I.Xoldarova) 2024-yil yakuniga qadar har bir umumta’lim maktabida, “Barkamol avlod” bolalar maktablarida, shu jumladan, xususiy sektorni jalb qilgan holda maktabdan tashqari ta’lim va sport to‘garaklari tashkil etilishini ta’minlasin.

Bunda, umumta’lim maktablarida to‘garaklarni tashkil etish va ularga kambag‘al oilalarning farzandlarini jalb qilish maqsadida 2025-yil uchun mahalliy byudjet parametrlarini shakllantirishda 500 milliard so‘m mablag‘ni nazarda tutilganligi inobatga olinsin.

8. Litsenziyalash, akkreditatsiyalash va apostil xizmatini ko‘rsatish bo‘limi (S.Maxsudov), Maktabgacha ta’lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish departamenti (Sh.Muxamedov) Moliya-iqtisod departamenti (I.Siradjev) 2024-yil 10-noyabrga qadar xususiy maktabgacha ta’lim tashkilotlari tashkil etilishini moliyaviy rag‘batlantirish bo‘yicha takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

9. Devonxona (H.Raximbayeva) ushbu buyruqni bir kunlik muddatda vazir o‘rinbosarlari, vazirlikning departament, boshqarma va bo‘limlariga yetkazilishini ta’minlasin.

10. Mazkur buyruqning bajarilishini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2024-yil 25-sentabr,
313-son

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2024-yil “25”sentabrdagi 313-son buyrug‘iga
ILOVA

“Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturini amalga oshirish bo‘yicha vazirlikning CHORA-TADBIRLAR REJASI

T/r	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas’ul vazirlik va idoralar	Mas’ullar
III. Ta’lim olish va kasb-hunarga o‘rganish imkoniyatini yaratish, maktabgacha ta’lim bilan qamrovni oshirish, xorijiy tillarga, kasb-hunarga yoki mutaxassislikka o‘qitish, oliy ma’lumot olishga ko‘maklashish					
1.	**10-band** Kambag‘al oilalarning farzandlarini maktabdan tashqari ta’lim va sport to‘garaklariga qamrab olish darajasini oshirish. 2. Xatlov natijalaridan kelib chiqib, umumta’lim maktablarining bo‘sh turgan yer va bino-inshootlarida xorijiy tillar, kasbga o‘qitish va axborot texnologiyalari va dasturlashtirish bo‘yicha o‘quv kurslarini tashkil etish yuzasidan dasturni Vazirlar Mahkamasiga kiritish. 3. Har bir umumta’lim maktabida, “Barkamol avlod” maktablarida, shu jumladan xususiy sektorni jalb qilgan holda maktabdan tashqari ta’lim va sport to‘garaklarini tashkil etish.	1. Respublika bo‘yicha har bir umumta’lim maktabida mavjud bo‘sh bino-inshoot va yer maydonlarini xatlovdan o‘tkazish.	2024-yil 1-noyabr	**Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi** Sport vazirligi, Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Adliya vazirligi **Vazir o‘rinbosarlari** *(U. SharifXodjayev, TKomilov),* **Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish boshqarmasi** *(ShTTemirova),* **O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish bo‘limi** *(A.Mamadaliyev),* **Soha infratuzilmasini rivojlantirish departamenti** *(F.Kushnazarov)* **Vazir o‘rinbosari** *(F.Boqiyev),* **Maktabdan tashqari ta’limni tashkil etish bo‘limi** *(I.Xoldarova),*	**Vazir o‘rinbosari** *(TKomilov),* **Soha infratuzilmasini rivojlantirish departamenti** *(F.Kushnazarov)*
		2024-yil 11-noyabr			
		2024-yil 10-dekabr			

T/r	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul vazirlik va idoralar	Mas'ullar
	4. Xususiy maktabgacha ta'lim tashkilotlari tashkil etilishini moliyaviy rag'batlantirish bo'yicha takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2024-yil 11-noyabr		**Vazir o'rinbosarlari** *(SRadjabov, TKomilov),* **Litsenziyalash, akkreditatsiyalash va apostil xizmatini ko'rsatish bo'limi** *(SMaxsudov),* **Maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish departamenti** *(ShMuxamedov),* **Moliya-iqtisod departamenti** *(I.Siradjev)*	**Maktablar boshqarmasi** *(EMurodov),*
2.	**11-band.** 2025-yil yakuniga qadar respublikadagi 3-7 yoshli bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrov darajasini 80 foizga yetkazish.	1. Mahallalar kesimida 3-7 yoshli bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrovi darajasini o'rganib chiqish. 2. 2025-yil yakuniga qadar 3-7 yoshli bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish dasturini ishlab chiqish va bunda quyidagilarni nazarda tutish: aholining yashash darajasi va to'lov qobiliyati yuqori bo'lgan (kambag'al oilalar kam bo'lgan) mahallalarda davlat-xususiy sheriklik shaklidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish; oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini faqatgina olis va chekka mahallalarda tashkil etish; aholining to'lov qobiliyati past (kambag'al oilalar nisbatan ko'p bo'lgan) va demografik o'sish darajasi yuqori bo'lgan mahallalarda davlat, shu jumladan, xalqaro moliya institutlari kredit va grant mablag'lari hisobidan davlat-xususiy sheriklik shaklidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish; ijtimoiy soha muassasalarining bo'sh binolarida qisqa muddatli guruhlarni tashkil etish.	2024-yil 1-oktabr 2024-yil 1-noyabr	**Maktabgacha va maktab ta'lim vazirligi,** Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari	**Vazir o'rinbosari** *(TKomilov),* **Vazir kotibiyati boshlig'i** *(J. Shamshiyev),* **Maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish departamenti** *(ShMmxamedov),* **Soha infratuzilmasini rivojlantirish departamenti** *(F.Kmshnazarov),* **Xorijiy investitsiyalar va grant loyihalarini muvofiqlashtirish boshqarmasi** *(D.Abdmmutalov)* **Teng kuchli ijrochilar**

T/r	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul vazirlik va idoralar	Mas'ullar
		3. 2025-2026-yillarda maktabgacha ta'lim bilan qamrov darajasini oshirishni nazarda tutuvchi Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasini tasdiqlash uchun kiritish.	2024-yil 11-noyabr		
3.	**12-band.** Davlat-xususiy sheriklik shaklidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari tashkil etilishni rag'batlantirish.	1. Davlat-xususiy sheriklik shaklidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini (oilaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlari bundan mustasno) tashkil etish va faoliyatini kengaytirish istagida bo'lgan tadbirkorlarni moliyaviy rag'batlantirishning (past foizli kredit ajratish) yangi mexanizmini ishlab chiqish uchun Iqtisodiyot va moliya vazirligiga taklif kiritish. 2. Rag'batlantirishning yangi mexanizmi bo'yicha takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2024-yil 25-noyabr	Iqtisodiyot va moliya vazirligi, **Maktabgacha va maktab ta'lim vazirligi**	**Vazir o'rinbosari** *(Td\omilov)*, **Vazir kotibiyati boshlig'i** *(Z Shamshiyev)*, **Soha infratuzilmasini rivojlantirish departamenti** *(F.Kushnazarov)*, **Maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish departamenti** *(Sh.Muxamedov)*
VII. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, mahallani muntazam internet aloqasi bilan ta'iminlash					
4.	**27-band.** Kambag'allikm qisqartirish bo'yicha raqamli texnologiyalarni rivojlantirish sohasida zarur chora-tadbirlar dasturini amalga oshirish.	1. Kambag'allikni qisqartirish bo'yicha raqamli texnologiyalarni rivojlantirish sohasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar dasturiga taklif ishlab chiqib, Raqamli texnologiyalar vazirligiga kiritish. Bunda, dasturda kambag'al oilalammg a'zolarining axborot texnologiyalari va dasturlash bo'yicha o'quv kurslarida o'qishi uchun sharoit yaratish, shu jumladan, maktablarda to'garaklar tashkil etishni nazarda tutish. 2. Tasdiqlangan dastur doirasida ishlarni sifatli tashkil etish va doimiy monitoring o'rnatib borish choralarini ko'rish.	2024-yil 25-oktabr	Raqamli texnologiyalar vazirligi, **Maktabgacha va maktab ta'lim vazirligi,** Iqtisodiyot va moliya vazirligi	**Vazir o'rinbosarlari** *(FBoqiyev, SRadjabov)*, **Maktabdan tashqari ta'limni tashkil etish bo'limi** *(I.Xoldarova)*, **Litsenziyalash, akkreditatsiyalash va apostil xizmatini ko'rsatish bo'limi** *(SMaxsudov)*

5.	**29-band.** Yoshlarning tafakkurini kengaytirishga, xorijiy tillarni va matn, jadval hamda grafiklarni tayyorlash va tahrirlash dasturlarini (microsoft office va shu kabi boshqalar), dasturlash	1. Dasturlash ko'nikmalarini o'rganishga asoslangan o'quv kurslar majmuini ishlab chiqish uchun takliflarni Raqamli texnologiyalar vazirligiga taqdim etish. 2. Kambag'al oila a'zolarining farzandlariga beriladigan noutbuklarga zaruriy ishlash dasturlarini o'rnatishga ko'maklashish.	2024-yil 25-oktabr	Raqamli texnologiyalar vazirligi, Yoshlar ishlar agentligi, **Maktabgacha va maktab ta'lim vazirligi**	**Vazir o'rinbosari** *(S.Radjabov),* **AKTni joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi** *(RMusurmonov)*
T/r	**Chora-tadbir nomi**	**Amalga oshirish mexanizmi**	**Ijro muddati**	**Mas'ul vazirlik va idoralar**	**Mas'ullar**
	ko'nikmalarim o'rganishga asoslangan o'quv kurslar majmuini ishlab chiqish hamda har bir noutbuklarga o'rnatish	3. Dasturlar bilan ishlash bo'yicha qo'llanmalarni noutbukka joylashtirish va ulardan foydalanish bo'yicha zaruriy ko'nikmalarni berish.			
6.	**30-band.** Yoshlarga tafakkurini kengaytirish, xorijiy tillarni va dasturlash asoslarini o'rganishga qaratilgan masofaviy o'quv kurslarida bepul o'qish imkoniyatini yaratish hamda undan erkin foydalanishni ta'minlash.	1. Masofaviy o'quv kurslarida bepul o'qish tartibini ishlab chiqish uchun takliflarni Raqamli texnologiyalar vazirligiga taqdim etish. 2. Yoshlarning tafakkurini kengaytirish, xorijiy tillarni va dasturlash asoslarini o'rganish bo'yicha yillik buyurtmalarni Raqamli texnologiyalar vazirligiga taqdim etish. 3. Masofaviy o'quv kurslarini tashkillashtirish hamda monitoring ishlarini olib borish.	2024-yil 1-dekabr	Raqamli texnologiyalar vazirligi, Yoshlar ishlar agentligi, **Maktabgacha va maktab ta'lim vazirligi**	**Vazir o'rinbosarlari** *(U. Sharifxodjayev, S.Radjabov),* **Xorijiy tillarni o'rganishini ommalashtirish boshqarmasi** *(Sh. Temirova),* **AKTni joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi** *(R.Musurmonov)*

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimidagi umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilari o‘rtasida “Ijod yoshlari” tanlovini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ijod maktablari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 1-apreldagi PQ-147-son qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan yosh ijodkor o‘quvchilami aniqlash, ulami ijodiy qobiliyatlarini yanada rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida **buyuraman:**

1. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilari o‘rtasida “Ijod yoshlari” tanlovi (keyingi o‘rinlarda - tanlov) tashkil etilsin.

2. Belgilab qo‘yilsinki:

tanlov Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tomonidan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 4-6-sinf o‘quvchilari o‘rtasida ikki (tuman (shahar) va viloyat) bosqichda har yili mart-aprel oylarida o‘tkaziladi;

tanlovning ikkinchi (viloyat) bosqichida 1-2-3-o‘rinlarni egallagan 6-sinf o‘quvchilari navbatdagi o‘quv yilida tanlovda ishtirok etgan ijod maktablariga belgilangan qabul parametrlari doirasida imtihonsiz qabul qilinadi;

tanlovda g‘oliblikni qo‘lga kiritgan 4-5-sinf o‘quvchilari 6-sinfda ta’lim olayotgan yili tanlovning ikkinchi (viloyat) bosqichida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishtirok etadi;

tanlov materiallari Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi tomonidan tayyorlanadi;

tanlovni tashkil etish bilan bog‘liq xarajatlar Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi huzuridagi Iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

3. Quyidagilar:

O‘quvchilar o‘rtasida “Ijod yoshlari” tanlovini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risida nizom 1-ilovaga muvofiq;

“Ijod yoshlari” tanlovini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha

tashkiliy qo‘mitaning namunaviy tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalariga:

tanlovning birinchi va ikkinchi bosqichlarini yuqori saviyada tashkil etilishi va o‘tkazilishiga ko‘maklashish;

mahalliy hokimliklar hamda homiylarni jalb qilgan holda tanlovning birinchi bosqichida g‘olib bo‘lgan o‘quvchilani rag‘batlantirish choralarini ko‘rish;

tanlovning birinchi va ikkinchi bosqichini o‘tkazish uchun yetarli moddiy-texnik bazaga ega, ishtirokchilar kelishi qulay bo‘lgan joyni belgilash;

tanlovning shaffof, xolis va adolatli o‘tkazilishini ta’minlash maqsadida tanlov o‘tkaziladigan joylarda kuzatuv kameralarini o‘matish;

tanlov ishtirokchilarini tanlov o‘tkaziladigan joyga kelib-ketishlarida harakat xavfsizligini ta’minlash;

tanlovning birinchi bosqichida g‘oliblikni qo‘lga kiritgan o‘quvchilarni ikkinchi bosqichda ishtirok etishini ta’minlash vazifalari yuklatilsin.

5. Axborot xizmati (D.Sobirova) tanlov jarayonlarini ommaviy axborot vositalari hamda vazirlikning rasmiy-veb sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida keng targ‘ib etib borsin.

6. Devonxona (H.Rahimbayeva) mazkur buyruqni bir kunlik muddatda vazirlikning tegishli tarkibiy bo‘linmalari, tasarrufdagi tashkilotlar hamda hududiy boshqarmalarga yetkazilishini ta’minlasin.

7. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi direktori A. Ubbiyev zimmasiga yuklansin.

Vazir **Umarova**

Toshkent sh.,
2024-yil 26-sentabr,
314-son

Kelishilgan

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi **S. Saidov**

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi
vazirining
2024-yil 26-sentabrdagi
314-son buyrug‘iga
1-ILOVA

O‘quvchilar o‘rtasida “Ijod yoshlari” tanlovini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risida
NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom umumiy o‘rta ta’lim maktablarining o‘quvchilari o‘rtasida “Ijod yoshlari” tanlovini (keyingi o‘rinlarda-tanlov) o‘tkazish tartibini belgilaydi.

2. Tanlov Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi (keyingi o‘rinlarda - vazirlik) tizimidagi umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 4-6-sinf o‘quvchilari o‘rtasida o‘tkaziladi.

3. Tanlov vazirlik huzuridagi Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi (keyingi o‘rinlarda - Agentlik) tomonidan hamkor tashkilotlar bilan birgalikda yagona ilmiy-uslubiy, ijodiy yondashuv asosida adolatlilik, ochiqlik va shaffoflik tamoyillari asosida o‘tkaziladi.

Tanlov 2025-yildan boshlab yilda bir marotaba an’anaviy tarzda tashkil etiladi.

4. Tanlov topshiriqlari, yozma va amaliy ishlarni (keyingi o‘rinlarda-nazorat materiallari) tayyorlash, iqtidorli, ijodkor o‘quvchilar zaxirasini shakllantirish hamda tanlovni o‘tkazish bilan bog‘liq tadbirlar Agentlik tomonidan muvofiqlashtiriladi.

2-bob. Tanlovning asosiy maqsadi va vazifalari

5. Tanlovning asosiy maqsadi umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 4-6-sinflarida ta’lim olayotgan yosh ijodkor o‘quvchilarni aniqlash, ularni ijodiy qobiliyatlarini yanada rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishdan iborat.

6. Quyidagilar tanlovning asosiy vazifalari hisoblanadi:

umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarining nazm, nasr, badiiy publitsistika, adabiyotshunoslik yo‘nalishlari bo‘yicha

iste'dod va qiziqishlarini yanada oshirish;

ijodkor o'quvchilarni erta aniqlash, ularing ijod, badiiy adabiyot, notiqlik san'atiga bo'lgan qiziqishini yanada qo'llab-quvvatlash;

o'quvchilarning fikrini mustaqil bayon eta olish, muloqot madaniyatini rivojlantirish, o'zbek va jahon adabiyotiga bo'lgan qiziqishini oshirish;

ijodkor o'quvchilarni o'z ustida ishlashiga, ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga ko'mak berish.

3-bob. Tashkiliy qo'mita

7. Tanlovni birinchi tuman (shahar) va ikkinchi (viloyat) bosqichini yuqori saviyada tashkil etish va o'tkazish vazifalari tashkiliy qo'mita zimmasiga yuklanadi.

8. Tashkiliy qo'mita tarkibi ijod maktabi direktorining buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

Tashkiliy qo'mita raisi ijod maktabi direktori hisoblanadi hamda tasdiqlangan namuna asosida shakllantiriladi.

9. Tashkiliy qo'mita vakolatlari:

tanlovni o'tkazish borasida qaror qabul qiladi;

tanlovning asosiy bosqichlari va tartib-qoidalari haqida ishtirokchilarni xabardor qiladi;

barcha ishtirokchilar uchun teng sharoitlarni yaratadi;

tanlov o'tkazish borasida oshkoralikni ta'minlaydi;

tanlov ishtirokchilari o'rtasida yuzaga keladigan nizolarni hal etadi;

mazkur nizomga asoslangan holda tanlovni o'tkazilishini tashkil etadi.

4-bob. Tanlovni o'tkazish tartibi

10. Tanlovni tashkil etish va o'tkazish Agentlik tomonidan muvofiqlashtiriladi.

11. Tanlovga qatnashish istagida bo'lgan o'quvchilar Agentlik tomonidan ishlab chiqilgan onlayn platformada ro'yxatdan o'tkaziladi.

12. Tanlovga hujjat topshirish muddatlari Agentlik tomonidan e'lon qilinadi. Hujjatlarni qabul qilish 20 kun davomida amalga oshiriladi. Tanlov boshlanishidan 10 kun oldin ro'yxatdan

o‘tkazish to‘xtatiladi.

13. Tanlov ikki (tuman (shahar) va viloyat) bosqichda o‘tkaziladi.

Tanlovning birinchi (keyingi o‘rinlarda-tuman (shahar) bosqichida 1-, 2- va 3-o‘rinni egallagan o‘quvchilar ikkinchi (viloyat) bosqichida ishtirok etadi.

14. Tanlovning tuman (shahar) bosqichi bir turda test shaklida o‘tkaziladi.

O‘quvchining ijodkorligi, tanqidiy va mantiqiy fikrlashi berilgan ma’lumotni tahlil qila olishi, akademik salohiyatini baholashga qaratilgan intellektual qobiliyat darajasini aniqlash bo‘yicha 20 ta test beriladi va quyidagi tartibda o‘tkaziladi:

oddiy darajadagi 5 ta test, har bir to‘g‘ri javob uchun 2 balldan jami, 10 ball;

o‘rta darajadagi 10 ta test, har bir to‘g‘ri javob uchun 2,5 balldan, jami 25 ball;

murakkab darajadagi 5 ta test, har bir to‘g‘ri javob uchun 3 balldan, jami 15 ball, umumiy 50 ball beriladi.

Test topshiriqlarini bajarish uchun har bir savolga 2 daqiqadan, jami 40 daqiqa vaqt ajratiladi. Test onlayn shaklda ijod maktablari binosida o‘tkaziladi.

O‘quvchilarning test natijalari teng kelib qolgan taqdirda savollar darajasi inobatga olinadi. Murakkab darajadagi savollarni topgan o‘quvchilarga ustunlik beriladi.

15. Tanlovning viloyat bosqichi ikki (ijodiy matn va ijodiy suhbat) turda o‘tkaziladi:

1-tur “Ijodiy matn” - o‘quvchilarga bir xil tartibdagi qisqa videorolik ikki marta qo‘yib beriladi. Videorolik mazmuniga mos ijodiy matn yaratishi talab etiladi.

Bunda ijodiy matn, matn, hikoya, she’r, esse shaklidabo‘lishi mumkin. Ijodiy matn yaratish uchun o‘quvchilarga 60 daqiqa vaqt beriladi.

“liodiy matn” quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

Baholash uchun asosiy mezonlar	Ball
I. Matn tarkibiy qismlarining yoritilganligi	**5 ball**
Kirish, asosiy qism va xulosa to ‘la yoritib berilgan bo ‘lsa;	*5 ball*
ijodiy matn qismlarining faqat 2 tasi to ‘layoritilgan bo ‘lsa;	*4ball*
ijodiy matn qismlarining faqat 1 tasi to ‘layoritilgan bo ‘lsa;	*2-3 ball*
yuqoridagi talablardan hech biri bajarilmagan, lekin matn yozilgan bo ‘lsa. *Baholashda matn tuzishga oid belgilangan so ‘z hajmi ham inobatga olinadi.*	*0-1 ball*
II. Imloviy va ishoraviy savodxonlik	**7 ball**
Imlo va tinish belgilarining qo‘llanishiga doir savodxonlikda xato bo‘lmasa, yoki 1 ta qo‘pol bo‘lmagan imlo va 2 tagacha tinish xato bo‘lsa, uslubiy xato bo‘lmasa, shuningdek, husnixat talab darajasida bo‘lsa;	7 ball
1 ta imlo, 2 tagacha tinish, 1 tagacha uslubiy xato uchun;	6 ball
2 tagacha imlo, 3 tagacha tinish, 1 ta uslubiy xato uchun;	5 ball
2 tagacha imlo, 4 tagacha tinish, 2 tagacha uslubiy xato uchun;	4 ball
4 tagacha imlo, 5 tagacha tinish, 2-3 tagacha uslubiy xato uchun;	3 ball
5 tagacha imlo, 6 tagacha tinish, 3 tagacha uslubiy xato uchun;	2 ball
6 tagacha imlo, 6 tagacha tinish, 4 tagacha uslubiy xato uchun;	1 ball
7 dan ortiq imlo, 6 tadan ortiq tinish, 4 tadan ortiq uslubiy xatolar uchun.	Oball
Agar o ‘quvchining ishida yuqoridagi xatolar nisbati va ularga berilgan ballar mezonga tushmasa, xatolar nisbatini yaxlitlash orqali ham ball chiqarishi mumkin. Bunda: *1 ta imlo = 2 ta tinishga;* *2 ta imlo = 4 ta tinishga yoki 1 ta uslubiy xatoga tenglashtiriladi.* *Bundan tashqari baholash jarayonida husnixat talablari ham inobatga olinadi.*	
III. Matnda leksik-semantik vositalarning aks etishi va gaplarning sintaktik qurilishi	**8 ball**
Ijodiy matn quyidagilarning o‘rinli va noo‘rin qo‘llanishi darajasiga qarab baholanadi: tasviriy ifodalar (o‘xshatish, metafora, jonlantirish kabi);	; 8 ballgacha

ma’nodosh, shakldosh, paronimlar, zid ma’noli, ko‘p ma’noli so‘zlar; eskirgan, yangi, shevaga doir so‘zlar; chet va haqorat so‘zlari (varvarizm, vulgarizm); agnonimlar (muayyan tilda muloqot qiluvchilar uchun o‘sha tildagi noma’lum, notanish, tushunarsiz yoki kam tushunarli bo‘lgan so‘zlar); barqaror birikmalarining (iboralar, maqol-matallar va hikmatli so‘zlar) qo‘llanilishi; badiiy, ilmiy, publitsistik uslubdan mohirona foydalanishi. Shuningdek, so‘zlar, jumlalarni noo‘rin takror qo‘llanmasligi va gaplarning (ayrim matn turlarining o‘ziga xos talabidan tashqari) sintaktik qurilishiga doir savodxonligi ham inobatga olinadi.	
IV. Ijodiy salohiyatning kengligi	**30 ball**
Ijodiy matn syujetli videoning asosiy g‘oyasini aniqlagan bo‘lsa;	2 ballgacha
fikrini asoslash uchun syujetli videoga tayangan holda dalillar keltirgan bo‘lsa;	2 ballgacha
boshqa fanlardan olgan bilimlari va hayotiy tajribasiga tayangan holda syujetli videoning asosiy g‘oyasiga o‘z munosabatini bildirgan bo‘lsa;	2 ballgacha
syujetli videodagi eksplisit (ochiq aytilgan) fikrlarni tushungan bo‘lsa;	1 ballgacha
syujetli videodagi implisit fikrlarni (tagma’nolarni) ilg‘agan bo‘lsa;	2 ballgacha
syujetni qisqacha qayta hikoya qilgan bo‘lsa;	1 ballgacha
syujetni keltirishda elementlar, voqealar ketma-ketligini to‘g‘ri qo‘ygan bo‘lsa;	1 ballgacha
tanqidiy-ijodiy fikrlashini namoyish etgan bo‘lsa;	2 ballgacha
tasviriy vositalarni asarda qo‘llashdan ko‘zlangan maqsadni tushuntirib bergan bo‘lsa;	1 ballgacha
ijodkor tili va uslubiga xos ayrim tasviriy va leksik xususiyatlarni topgan bo‘lsa;	1 ballgacha
obrazlarga o‘z bahosini bergan bo‘lsa;	2 ballgacha
ijodiy matn yozilayotgan asarni o‘zi o‘qigan, ko‘rgan boshqa badiiy asarlar (kitob, kino, rasm) bilan solishtirib, muayyan fikr chiqara olgan bo‘lsa;	2 ballgacha
o‘z taassurotlarini bayon qilgan bo‘lsa;	1 ballgacha
umuminsoniy va milliy qadriyatlar ulug‘langan bo‘lsa;	2 ballgacha
mazmunan bugungi davr bilan bog‘langan bo‘lsa;	2 ballgacha
turli lingvistik va ekspressiv vositalardan o‘rinli foydalangan bo‘lsa;	2 ballgacha
matnda mantiqiy izchillikka rioya qilingan bo‘lsa;	2 ballgacha
mustaqil xulosalar chiqargan bo‘lsa.	2 ballgacha
Jami:	**50 ball .**

Ijodiy matn tekshirilish jarayonida yuqoridagi shakliy ko‘rsatkichlar

bo ‘yicha baholash mezonlarga mos kelmagan hollarda ballar xulosalarni umumlashtirish orqali qo‘yiladi.

2-tur “Ijodiy suhbat” uchun har bir o‘quvchiga 5 daqiqa vaqt ajratiladi, shu jumladan, tayyorgarlik uchun 1 daqiqa vaqt olishi mumkin. Tanlangan savolning yoki o‘quvchi ijod mahsulining qamrovidan kelib chiqib, qo‘shimcha 2 daqiqa vaqt berilishi mumkin.

Ijodiy suhbat yuzma-yuz tarzda o‘tkaziladi. Mazkur turda o‘quvchi suhbat biletlari asosida sinovdan o‘tkaziladi. O‘quvchining biletda aks etgan savol mohiyatini qay darajada tushunishi, savol tegishli bo‘lgan asar voqealariga tanqidiy- tahliliy yondasha olishi, badiiy asar yuzasidan o‘z kreativ fikriga ega ekanligi, savol tegishli bo‘lgan asardagi badiiy tasvir vositalarini anglay bilishi sinaladi.

Ijodiv suhbat quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

Baholash uchun asosiy mezonlar	Ball
Maktab dasturi bo‘yicha quyi sinflarda o‘rganilgan asar, nazariy ma’lumot bo‘yicha berilgan parcha doirasida mavzuni tushunishi, mustaqil fikrlashi;	*8 ballgacha*
mavzu doirasida tanqidiy fikr bildirish qobiliyati, o‘z fikrini mantiqiy izchillikda, ijodiy yondashib, tushunarli bayon qilishi;	*10 ballgacha*
maktab dasturi bo‘yicha quyi sinflarda o‘rganilgan she’r, monolog, parcha yoki o‘qilgan asaming muallifi, janri, shuningdek, mavzu doirasidagi nazariy bilimi;	*8 ballgacha*
fikrini bayon etish jarayonida tilning badiiy tasvir vositalaridan mavzu doirasida o‘rinli foydalanishi;	*8 ballgacha*
fikrini bayon etish jarayonida adabiy talaffuz me’yorlariga rioya qilishi;	*6 ballgacha*
noverbal vositalardan foydalanish ko‘nikmasi;	*5 ballgacha*
qo‘shimcha savollarga javob berishi, bunda badihago‘ylik qobiliyati (improvizatsiyasi), o‘ziga xos tasavvur dunyosi borligi.	*5 ballgacha*
Jami	**50 ball**

5-bob. Hakamlar hay’ati va apellyatsiya komissiyasi tarkibi

16. Tanlovning birinchi tuman (shahar) va ikkinchi (viloyat) bosqichi uchun Hakamlar hay’ati tarkibi kamida 7 nafar a’zolardan iborat ijod maktablari va hamkor tashkilotlardan yuqori malakali

mutaxassislarini jalb etilgan tarkibda tuziladi.

Hakamlar hay'ati tarkibi ijod maktabi direktori tomonidan toq miqdordagi a'zolardan iborat tarkibda tasdiqlanadi.

Hakamlar hay'ati a'zolari ochiq ovoz berish yo'li bilan hay'at raisini saylaydilar.

17. Hakamlar hay'ati:

tanlovda ishtirokchilar tomonidan bajarilgan ishlarni mazkur nizom bilan tasdiqlangan baholash mezonlari asosida xolisona tekshiradi, baholaydi va g'oliblarni aniqlaydi;

natijalarni tanlov o'tkazilgan kuni e'lon qiladi, Agentlikka taqdim etiladi;

o'tkazilgan tanlov natijalari bo'yicha viloyat bosqichida 1-,2-,3-o'rinni egallagan ishtirokchi o'z hududidagi ijod maktabiga Agentlik rahbarining buyrug'iga asosan qabul qiladi.

Hakamlar hay'ati a'zolari tanlov g'oliblarini xolisona aniqlashda va nazorat materiallarining maxfiyligini ta'minlashda shaxsan javobgar hisoblanadi.

18. Tanlov natijalari 10 kun muddatda e'lon qilinadi.

19. Hakamlar hay'ati baholashidan norozi bo'lgan talabgorlarning ishlari apellyatsiya tartibida ko'rib chiqiladi.

20. Tanlov shartlarining natijalari e'lon qilingandan so'ng uch kun davomida apellyatsiya bo'yicha arizalar qabul qilinadi.

21. Apellyatsiya komissiyasi tarkibi ijod maktablari direktorlari buyrug'i bilan uch nafardan kam bo'lmagan toq miqdorda malakali mutaxassislardan iborat tarkibda tasdiqlanadi.

22. Ishtirokchilarni baholash jarayoni natijalari yuzasidan berilgan murojaatlarni ko'rib chiqish uchun apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

23. Apellyatsiya komissiyasiga boshqa tashkilotlardan mutaxassislar jalb etilishi mumkin. Apellyatsiya komissiyasi ishida a'zolarning yarmidan ko'pi ishtirok etgan taqdirda vakolatli hisoblanadi. Baholash komissiyasi a'zolari apellyatsiya komissiyasi tarkibiga kiritilmaydi.

24. Hakamlar hay'ati qaroridan norozi bo'lgan baholanuvchi baholash jarayoni natijalari e'lon qilingan vaqtda apellyatsiya komissiyasiga yozma ravishda murojaat qilishi mumkin.

25. Apellyatsiya komissiyasiga murojaat qilgan baholanuvchilar ularning murojaatini ko'rib chiqilganligi to'g'risida

xabardor qilinadi.

26. Apellyatsiya komissiyasi natijani o‘zgartirish yoki o‘zgarishsiz qoldirish to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

6-bob. Tanlov g‘oliblarni taqdirlash

27. Tanlovning yakuniga ko‘ra g‘oliblar quyidagi tartibda Agentlik huzuridagi Iqtidorli yoshlami qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan taqdirlanadi:

1-o‘rin - “Ijod yoshlari” tanlovining I darajali diplomi

2-o‘rin - “Ijod yoshlari” tanlovining II darajali diplomi

3-o‘rin - “Ijod yoshlari” tanlovining III darajali diplomi

28. Tanlovning ikkinchi (viloyat) bosqichida 1-2-3-o‘rinlarni egallagan 6-sinf o‘quvchilari navbatdagi o‘quv yilida tanlovda ishtirok etgan ijod maktablariga belgilangan qabul parametrlari doirasida imtihonsiz qabul qilinadi.

G‘olib o‘quvchilar uchun belgilangan imtiyoz boshqa ijod maktablariga tatbiq etilmaydi.

tanlovda g‘oliblikni qo‘lga kiritgan 4-5-sinf o‘quvchilari 6-sinfda o‘qiyotgan yili tanlovning ikkinchi (viloyat) bosqichida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishtirok etish huquqiga ega bo‘ladi.

29. G‘olib o‘quvchilarga imtiyozdan foydalanish huquqi bir marta beriladi.

7-bob. Yakunlovchi qoidalar

30. Tanlovning qatnashchilardan tashqari uni qo‘llab-quwatlovchilarning tanlov jarayonlariga, hakamlar hay’ati a‘zolari faoliyatiga xalaqit berilishi, tanlov natijalariga asossiz aralashuvlari man etiladi.

31. Mazkur nizom talablariga rioya qilmagan qatnashchilar hakamlar hay’ati tomonidan chetlashtirilib, bu haqida hay’at raisi va a’zolari tomonidan dalolatnoma tuziladi.

32. Ushbu nizomda nazarda tutilmagan holatlar qonunchilik hujjatlarida belgilangan qoidalar asosida tartibga solinadi.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi
vazirining
2024-yil 26-sentabrdagi
314-son buyrug‘iga
2-ILOVA

“Ijod yoshlari” tanlovini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tashkiliy qo‘mitaning namunaviy
TARKIBI

T/r	F.I.SH	Lavozimi
1.	Lavozimiga ko‘ra	Ijod maktabi direktori, tashkiliy qo‘mita raisi
2.	Lavozimiga ko‘ra	Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo‘limi rahbari, tashkiliy qo‘mita hamraisi
3.	Lavozimiga ko‘ra	Ijod maktabi direktorining ixtisoslik fanlari bo‘yicha o‘rinbosari, rais o‘rinbosari
4.	Lavozimiga ko‘ra	Hududiy maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi mas’ul xodimi, a’zo
5.	Lavozimiga ko‘ra	Yozuvchilar uyushmasi vakili, a’zo
6.	Lavozimiga ko‘ra	Ijod maktabining ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi, a’zo
7.	Lavozimiga ko‘ra	Ijod maktabining ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi, kotib

Izoh: *Komissiya a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangi tayinlangan yoki zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.*

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 30-sentabrdagi PF-152-son Farmoni ijrosi haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 30-sentabrdagi PF-152-son Farmonida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi PF-152-son Farmoni (keyingi o‘rinlarda - Farmon) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

2024-2025-yillarda maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini oshirish bo‘yicha Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining chora-tadbirlar rejasi 1-ilovaga muvofiq;

Tuman va shaharlarda tashkil etiladigan tayanch davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. AKTni joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi (R.Musurmonov) Maktabgacha ta’lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish departamenti (Sh.Muxamedov) bilan birgalikda 2026-2027-o‘quv yilidan boshlab maktabgacha ta’lim tashkilotlari tomonidan Maktabgacha ta’limni boshqarish axborot tizimida “Bolaning rivojlanish xaritasi”ni yuritish amaliyotini joriy qilsin.

4. Maktabgacha ta’lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish departamenti (Sh.Muxamedov), O‘quv jarayonini metodik ta’minlash va darsliklar boshqarmasi (D.Norboyeva) 2025-yil 1-iyulga qadar:

maktabgacha ta’limning davlat ta’lim dasturini xalqaro standartlar asosida takomillashtirsin;

maktabga tayyorlov guruhlari va boshlang‘ich ta’lim o‘quv dasturlarining o‘zaro uzviyligi va muvofiqligini ta’minlasin.

5. Maktabgacha ta’lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish departamenti (Sh.Muxamedov) 2025-yil 1-iyulga qadar maktabgacha ta’limning davlat ta’lim dasturi doirasida elektron resurslar, audiovizual mahsulotlar va o‘quv-metodik materiallarni ishlab chiqsin va AKTni joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasiga taqdim etsin.

6. AKTni joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi (R.Musurmonov) 2025-yil 1-avgustga qadar:

maktabgacha ta’limning davlat ta’lim dasturi doirasida ishlab chiqilgan elektron resurslar, audiovizual mahsulotlar va o‘quv-metodik materiallarni Maktabgacha ta’limni boshqarish axborot tizimi (keyingi o‘rinlarda — Axborot tizimi)da joylashtirsin hamda ushbu materiallardan erkin va bepul foydalanish imkoniyatini yaratsin;

axborot tizimida ota-onalar uchun shaxsiy kabinet yaratsin va unda “Bolaning rivojlanish xaritasi” ma’lumotlarining doimiy ravishda joylashtirilishini ta’minlasin.

7. Farmon bilan 2025-yil 1-yanvardan boshlab maktabgacha ta’lim tashkilotlarining tarbiyachi-metodist lavozimi negizida amaldagi mehnatga haq to‘lash shartlarini saqlab qolgan holda maktabgacha ta’lim tashkilotining direktori o‘rinbosari lavozimini joriy etilganligi inobatga olinsin.

8. Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi (I.Sharipov), Maktabgacha ta’lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish departamenti (Sh.Muxamedov) bilan birgalikda bir hafta muddatda maktabgacha ta’lim tashkilotining direktor o‘rinbosari lavozimining malaka tavsifi va lavozim yo‘riqnomalarini ishlab chiqsin va tasdiqlashga kiritsin.

9. Moliya-iqtisod departamenti (I.Siradjev), Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi (I.Sharipov) davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarining amaldagi namunaviy shtatlar jadvaliga tegishli o‘zgartirishlar kiritish choralarini ko’rsin.

10. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Toshkent shahar hamda viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalariga 2025-yil 1-yanvardan boshlab:

davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarining amaldagi shtatlar jadvaliga namunaviy shtatlar jadvali asosida tegishli o‘zgartirish kiritsin hamda ro‘yxatdan o‘tkazilishi;

yangi tashkil etilgan maktabgacha ta’lim tashkilotining direktor o‘rinbosari lavozimiga tarbiyachi-metodist lavozimida faoliyat ko‘rsatib kelayotgan xodimlarni vazirlik tomonidan tasdiqlanadigan malaka tavsiflari hamda qonunchilik talablariga muvofiq mehnat shartnomalariga tegishli o‘zgartirishlar kiritilishi;

2-ilovada tasdiqlangan tayanch maktabgacha ta’lim tashkilotlarida trener sifatida faoliyat yuritayotgan direktor o‘rinbosarlariga tegishli tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlari huzuridagi Maktabgacha va maktab ta’limi xodimlarini rag‘batlantirish jamg‘armalari hisobidan lavozim maoshining 20 foizi miqdorida qo‘shimcha har oylik ustama haq to‘lanishini ta’minlash vazifalari yuklatilsin.

11. Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi (I.Sharipov) Maktabgacha ta’lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish departamenti (Sh.Muxamedov) bilan birgalikda uch oy muddatda maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagogining shaxsiy fazilatlari, kasbiy bilimlari, malaka va ko‘mkmalariga qo‘yiladigan asosiy talablarni belgilaydigan maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagogining kasbiy standartini Vazirlar Mahkamasiga tasdiqlash uchun kiritsin.

12. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari “Metodik mahorat soati” va “Metodik mahorat kuni” tadbirlarini tashkil etish bo‘yicha ishchi guruh tarkibini tasdiqlasin.

13. Pedagog kadrlarni tayyorlash va kasbiy rivojlantirish boshqarmasi (M.Yuldashev):

a) 2025-yil 1-martdan boshlab tajriba-sinov tariqasida respublikaning uzoq va chekka hududlarida joylashgan maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlari uchun mobil malaka oshirish xizmatlarini joriy etsin.

Bunda,

mobil malaka oshirish xizmatlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlardagi pedagogik mahorat markazlari tomonidan 4 ta auditoriya ko‘rinishidagi avtobuslar negizida tashkil etilishi;

nodavlat va davlat-xususiy sheriklik asosidagi maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglari uchun mobil malaka oshirish

xizmatlari pullik asosda ko‘rsatilishi;

avtobuslarni jihozlash “Bolalarning erta yoshdan rivojlanishiga ko‘maklashish” loyihasi doirasida Jahon banki tomonidan ajratilgan mablag‘lar hisobidan amalga oshirilishi;

avtobuslar haydovchilarining ish haqi, yoqilg‘i-moylash va boshqa xarajatlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlardagi pedagogik mahorat markazlarining pullik xizmatlaridan tushgan mablag‘lari hisobidan qoplanishi inobatga olinsin.

b) 2025-yil 1-martga qadar yangi ishlab chiqilgan kasbiy standart asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish dasturlarini takomillashtirsin.

14. Ta’lim sifatini baholash va monitoring qilish boshqarmasi (O.Zokirov), Maktabgacha ta’lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish departamenti (Sh.Muxamedov) ikki oy muddatda Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri jamg‘armasi faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

15. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari bir oy muddatda har bir tuman (shahar) kesimida tajriba-sinov tariqasida inklyuziv ta’lim guruhi tashkil etiladigan bittadan umumiy turdagi davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari ro‘yxatini vazirlikning Inklyuziv ta’lim va mehrli maktab faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limiga taqdim etsin.

16. Inklyuziv ta’lim va mehrli maktab faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi (R.To‘rayev):

2024-yil 1-dekabrga qadar taqdim etilgan umumiy turdagi davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari ro‘yxatini o‘rganib chiqib tasdiqlash uchun rahbariyatga kiritsin;

O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi (L.Gaynutdinova) bilan birgalikda 2024-yil yakuniga qadar inklyuziv ta’lim guruhi tashkil etiladigan davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarining rahbar va pedagog xodimlari uchun alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantirish maqsadida qisqa muddatli malaka oshirish kurslarini tashkil etsin;

Maktabgacha ta’lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish departamenti (Sh.Muxamedov) bilan birgalikda 2025-yil

1-yanvardan boshlab tajriba-sinov tariqasida har bir tuman (shahar)dagi bittadan umumiy turdagi davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’lim guruhlari faoliyatini yo‘lga qo‘ysin.

17. Soha infratuzilmasini rivojlantirish departamenti (F.Kushnazarov):

2025-yil 1-yanvarga qadar davlat-xususiy sheriklik asosida nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog‘ini kengaytirish uchun davlat umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining bo‘sh turgan yer uchastkalarini xatlovdan o‘tkazsin;

2025-yil 1-aprelga qadar davlat umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining bo‘sh turgan yer uchastkalarida davlat-xususiy sheriklik asosida nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha tanlov o‘tkazsin.

18. Tegishli mas’ul departament, boshqarma va bo‘lim boshliqlari har oyning 28-sanasiga qadar Farmon ijrosi bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi aniq ma’lumotlar hamda ularing asoslantiruvchi hujjatlarini ilova qilgan holda muvofiqlashtiruvchi vazir o‘rinbosarlari bilan kelishib Maktabgacha ta’lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish departamentiga taqdim etsin.

19. Maktabgacha ta’lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish departamenti (Sh.Muxamedov) har oy yakunida Farmon ijrosi bo‘yicha umumlashtirilgan ma’lumotlarni tahlil qilgan holda Vazirlar Mahkamasiga kiritib borsin.

20. Maktabgacha ta’lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish departamenti (Sh.Muxamedov), Yuridik boshqarma (O.Ibrohimov) uch oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu Farmondan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

21. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2023-yil 3-noyabrdagi “O’zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta’lim agentligi tasarrufidagi ekperimental davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarining namunaviy ustavlarini tasdiqlash to‘g‘risida” 532-son buyrug‘i o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

22. Axborot xizmati (D.Sobirova) Farmonda belgilangan tegishli tadbirlarning ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida muntazam yoritib borsin.

23. Devonxona (H.Raximbayeva) ushbu buyruqni bir kunlik muddatda vazirlikning departament, boshqarma va bo‘limlari, hududiy maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari hamda vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar va muassasalarga yetkazilishini ta’minlasin.

24. Mazkur buyruqning bajarilishini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Vazir **X.Umarova**

Toshkent sh.,
2024-yil 3-oktabr,
323-son

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi
vazirining
2024-yil 3-oktabrdagi
323-sonli buyrug‘iga
1-ILOVA

2024-2025 yillarda maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini oshirish bo‘yicha Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining chora-tadbirlar REJASI

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Moliya-lashtirish manbalari	Mas’ul ijrochilar	
					Markaziy apparat, tasarruf tashkilotlar	Vazirlik rahbariyati
I. Maktabgacha ta’limning o‘quv metodik bazasini takomillashtirish						
1.	Maktabga tayyorlov guruhlari va boshlang‘ich ta’limning o‘quv dasturlari uzviyligini ta’minlash.	1. Maktabga tayyorlov guruhlari va boshlang‘ich ta’limning o‘quv dasturlarini ko‘rib chiqish bo‘yicha Ishchi guruhni shakllantirish. 2. Xalqaro tajribalar asosida maktabga tayyorlov guruhlari va boshlang‘ich ta’limning o‘quv dasturlari uzviyligini ta’minlash uchun qayta ko‘rib chiqish. 3. Takomillashtirilgan o‘quv dasturlarni ta’lim jarayoniga bosqichma-bosqich joriy etish.	2024-yil noyabr 2025-yil mart 2025-2026-o‘quv yilidan boshlab	Ijrochilar mablag‘lari hisobidan	Maktabgacha ta’lim tizimi faoliyatini muvofiql ashtiri sh departamenti (Sh.Muxamedov), O‘quv jarayonini metodik ta’minlash va darsliklar boshqarmasi (D.Norboyeva)	Vazirning birinchi o‘rinbosari **U.Sharifxodjayev**

2.	Maktabgacha ta'lim-ning davlat ta'lim das-turini amalga oshirish-ga oid o'quv-metodik majmualarni yaratish.	1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglari uchun xalqaro standartlar asosida o'quv-metodik majmualarni yaratish. Bunda: kichik va o'rta yosh guruhlari-dagi bolalarda kognitiv, psixomotor va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga; katta yoshdagi va maktabga tayyorlov guruhlaridagi bolalarda bilim olish,	2025-yil avgust	Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri-giga ajratilgan mablag'lar, Ta'lim sohasidagi islohotlarga ko'maklashish jamg'armasi hamda byud-jetdan	Maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatini muvofi ql ashtiri sh departa-menti (Sh.Muxame-dov), O'quv jarayonini metodik ta`minlash va darsliklar boshqarmasi (D.Norboyeva), Ta'lim sohasidagi islohotlarga ko'maklashish	Vaziming birinchi o'rin-bosari **U.Sharifxodjayev,** Vazir o'rinbosari **T.Komilov**
		kommunikativ va ijodiy kompetensi-yalarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratish. 2. Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik-da tarbiyalanuvchilarni rivojlantirishga yo'naltirilgan xorijiy o'quv-metodik maj-mualarni mahalliylashtirish va ushbu o'quv-metodik majmualarini vazirlik ti-zimidagi nashriyot tashkilotlarida nashr etish. 3. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari uc-hun qo'shimcha didaktik materiallar va bolalar adabiyotini yaratish hamda ularning Maktabgacha va maktab ta'li-mi vazirligi tizimidagi nashriyot tashki-lotlarida chop etilishini tashkil etish. Bunda, qo'shimcha adabiyotlarni yara-tish va chop etishni Ta'lim sohasidagi islohotlarga ko'maklashish jamg'arma-si hisobidan amalga oshirish.	2025-yil avgust 2025-yil sentabr	tashqari mab-lag'lar	jamg'armasi faoliyatini tashkil etish bo'limi (I.Xoliqulov)	

3.	Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining reytingini shakllantirish.	Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining "Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkiloti" baholash mezoni asosida baholash va reytingini shakllantirish.	2025-2026-o'quv yilidan boshlab	-	Maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatini muvofi ql ashtiri sh departamenti (Sh. Muxamedov)	Vazir kotibiyati boshlig'i **J.Shamshiyev**
4.	Umumiy turdagi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirish va rag'batlantirish mexanizmlarini joriy etish.	Inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirish va rag'batlantirish mexanizmlarini joriy etish yuzasidan amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish.	2024-yil dekabr	—	Inklyuziv ta'lim va mehrli maktab faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi (R.To'rayev), Maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatini muvofi qlashti ri sh departamenti (Sh. Muxamedov)	Vazir o'rinbosari **F.Boqiyev**
	II. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlari salohiyatini oshirish					
5.	Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "Metodik mahorat kuni" va "Metodik mahorat	1. Tayanch davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari ro'yxatini shakllantirish.	2024-yil noyabr	—	Maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatini muvofi ql ashtiri sh departamenti (Sh. Muxamedov)	Vazir o'rinbosari **S.Radjabov**

soati" tadbirlarini tashkil etish.	2. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "Metodik mahorat kuni" va "Metodik mahorat soati" tadbirlarini tashkil etish tartibini tasdiqlash. Bunda: "Metodik mahorat soati" va "Metodik mahorat kuni" tadbirlarini tashkil etish uchun har bir tuman (shahar)da maktabgacha ta'lim tashkilotlarining direktor o'rinbosarlaridan trenerlar guruhini shakllantirishni; malakali xorijiy mutaxassislarni jalb qilgan holda trenerlar uchun alohida tayyorlov kurslari tashkil etilishini; trener sifatida faoliyat yuritayotgan direktor o'rinbosarlari va pedagoglarga tegishli tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari huzuridagi Maktabgacha va maktab ta'limi xodimlarini rag'batlantirish jamg'armalari hisobidan lavozim maoshining 20 foizi miqdorida qo'shimcha har oylik ustama haq to'lashni nazarda tutish. 3. Pedagoglarni kasbiy rivojlantirishning namunaviy dasturini tasdiqlash.	2024-yil dekabr 2024-yil dekabr		Pedagog kadrlarni tayyorlash va kasbiy rivojlantirish boshqarmasi (M.Yuldashev), Maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatini muvofiql ashtiri sh departamenti (Sh.Muxamedov), A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti (A.Ismailov), Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti (N.Abdunazarova) Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziriligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari	

6.	Oliy ta'lim muassasalarida bakalavriatning maktabgacha ta'lim yo'nalishi bo'yicha dual ta'lim tizimini joriy etish.	Maktabgacha ta'lim yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarni dual ta'lim asosida o'qitish mexanizmini ishlab chiqish. Bunda, bir haftada kamida ikki kun oliy ta'lim muassasasida ta'lim dasturining nazariy va o'quv qismi o'tilishini, qolgan kunlari maktabgacha ta'lim tashkilotida ishlab chiqarish bilan bog'liq amaliy qismlari o'tkazilishini nazarda tutish.	2025-yil may	Ijrochilar mablag'lari hisobidan	Pedagog kadrlarni tayyorlash va kasbiy rivojlantirish boshqarmasi (M.Yuldashev), Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi (I.Sharipov)	Vazir o'rinbosari **S.Radjabov**
7.	Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining kasbiy salohiyatini oshirish choralarini ko'rish.	1. Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining kasbiy salohiyatini oshirish yuzasidan malaka oshirish kurslari va o'quv seminarlari tashkil etish. 2. Uzoq va chekka hududlarida joylashgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlari uchun tajriba-sinov tariqasida 4 ta auditoriya ko'rinishidagi avtobuslar negizida pullik mobil malaka oshirish xizmatlarini yo'lga qo'yish.	2025-yil mart 2025-yil mart	Ijrochilar mablag'lari hisobidan	Pedagog kadrlarni tayyorlash va kasbiy rivojlantirish boshqarmasi (M.Yuldashev), Maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish departamenti (Sh.Muxamedov), "Bolalarni erta yoshdan rivojlantirishni takomillashtirish" loyihasi koordinatori (D.Gafarov), Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari	Vazir o'rinbosari **S.Radjabov**

8.	"Oliy ta'lim - professional ta'lim - maktabgacha ta'lim" tamoyili asosida ta'lim klasterini tajriba-sinov tariqasida joriy etish.	"Oliy ta'lim - professional ta'lim - maktabgacha ta'lim" tamoyili asosida pedagoglarni tayyorlash va ularni kasbiy mahoratini oshirish tizimini tajriba-sinov tariqasida joriy etish. Bunda: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetiga pedagogika texnikumlari va maktabgacha ta'lim tashkilotlarini biriktirish; biriktirilgan ta'lim tashkilotlarida maktabgacha ta'lim pedagoglari uchun sohasida yangiliklar, nazariy ishlanmalar va ilg'or xorijiy tajribalarni joriy etish, kasbiy mahoratini doimiy oshirib borish uchun sharoit yaratish; maktabgacha ta'lim yo'nalishida ilmiy	2025-yil yanvar	Ijrochilar mablag'lari hisobidan	Pedagog kadrlarni tayyorlash va kasbiy rivojlantirish boshqarmasi (M.Yuldashev), Maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtiri sh departamenti (Sh. Muxamedov), Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti (A.Qig'izboyev)	Vazir o'rinbosari **S.Radjabov**
		ish olib boruvchi izlanuvchilar, yangi tajriba va metodikalarni joriy etayotgan amaliyotchilar uchun doimiy eksperimental maydoncha yaratish.				
		III. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish				
9.	Zamonaviy talablardan kelib chiqqan holda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining idoraviy qurilish normalarini qayta ko'rib chiqish borasida Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi bilan hamkorlik qilish.	Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining idoraviy qurilish normalarini qayta ko'rib chiqish. Bunda, maktabgacha ta'lim tashkilotlari binolarini zamonaviy, energiya tejamkor, ekologik toza qurilish materiallaridan foydalangan holda qurishni inobatga olish.	2024-yil dekabr	—	Soha infratuzilmasini rivojlantirish departamenti (F.Kushnazarov)	Vazir o'rinbosari **T.Komilov**

10.	Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining foydalanilmasdan bo'sh turgan yer uchastkalarida davlat-xususiy sheriklik asosida nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etishga ruxsat berish.	1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari mavjud bo'lmagan, navbatliligi yuqori bo'lgan mahallalardagi umumiy o'rta ta'lim muassasalarining foydalanilmasdan bo'sh turgan yer uchastkalarida davlat-xususiy sheriklik asosida nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini etish uchun tanlovlar e'lon qilish. 2. Tanlov g'oliblari bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-apreldagi "Maktabgacha ta'lim tizimini yanada rag'batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3651- son qarori talablari asosida bitim tuzish.	2025-yil fevral Qonunchilik hujjatlarida belgilangan muddatlarda	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga ajratilgan mablag'lar doirasida	Soha infratuzilmasini rivojlantirish departamenti (F.Kushnazarov), Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari	Vazir o'rinbosari **T.Komilov**
11.	Davlat oliy ta'lim muassasalariga bo'sh turgan yer uchastkalarida maktabgacha ta'lim tashkilotlarini barpo etish huquqini berish.	1. Davlat oliy ta'lim muassasalarining bo'sh turgan yer uchastkalarida maktabgacha ta'lim tashkilotlarini qurish bo'yicha loyihalarni amalga oshirishda oliy ta'lim muassasalariga ko'maklashish. Bunda:	2025-yil avgust	Ijrochilar va byudjet mablag'lari hisobidan	Soha infratuzilmasini rivojlantirish departamenti (F.Kushnazarov), Maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtiri sh departamenti	Vazir o'rinbosari **T.Komilov**
		maktabgacha ta'lim tashkilotlarini qurish va jihozlashni davlat oliy ta'lim muassasalarining byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan, ularni saqlashni esa Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga ajratiladigan Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan amalga oshirilishini; davlat oliy ta'lim muassasalari huzuridagi maktabgacha ta'lim tashkilotlariga ushbu muassasalar xodimlari va talabalarining farzandlarini ustuvor ravishda qabul qilish nazarda tutish.	2026-yil yanvar		(Sh.Muxamedov), Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari	

IV. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sog'lom ovqatlantirishni tashkil etish						
12.	Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini oqsil, vitamin va minerallar bilan boyitilgan mahsulotlar bilan ovqatlantirishni tashkil etish.	1. Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari uchun oqsil, vitamin va minerallar bilan boyitilgan qadoqlangan yoki quritilgan sut mahsulotlarini xarid qilishni tashkil etish. 2. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini sifatli non mahsulotlari bilan ta'minlash maqsadida: tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari tomonidan ishlab chiqaruvchi va yetkazib beruvchi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun non mahsulotlarini tayyorlashda yodlangan tuz ishlatilganligini tasdiqlovchi hujjatlami (yetkazib beriladigan non mahsulotlarining har bir turkumi uchun) talab qilib olish tartibini joriy qilish; yetkazib beruvchilar zimmasiga maktabgacha ta'lim tashkilotlariga yetkazib beriladigan non mahsulotlarini haftada kamida bir marotaba akkreditatsiyadan o'tgan laboratoriyalarda sinovdan o'tkazib, non mahsulotlari tarkibidagi zarur elementlar mavjudligi to'g'risida xulosa	2024-yil sentabr	Mahalliy byudjet mablag'lari	Sog'lom ovqatlantirishni tashkil etish va tibbiy xizmat ko'rsatishni muvofiqlashtirish bo'limi (X.T oraxodjayev), Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari	Vazir o'rinbosari **T.Komilov**
		nusxasini buyurtmachiga taqdim etish vazifasini yuklash.				

13.	Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni sifatli ovqatlantirish jarayonlarini hamda ularga yetkazib berilayotgan mahsulotlarning sifatini nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirish.	Maktabgacha va maktab ta'limi tizimida sifatli va xavfsiz ovqatlantirish tizimini joriy etish maqsadida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzurida Ta'lim sohasida ovqatlantirishni tashkil etish markazini tashkil etish bo'yicha takliflarni Vazirlar Mahkamasi kiritish.	2024 yil dekabr	—	Sog'lom ovqatlantirishni tashkil etish va tibbiy xizmat ko'rsatishni muvofiqlashtirish bo'limi (X.T oraxodj ayev)	Vazir o'rinbosari **T.Komilov**
V. Maktabgacha ta'lim tizimini raqamlashtirish						

14.	Davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etiladigan nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan tuziladigan bitimlarni elektron shaklda imzolanishni tartibni joriy etish.	1. Davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etiladigan nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan tuziladigan bitimlarni elektron shaklda imzolanishni tartibni ishlab chiqish.	2024-yil oktabr	—	Soha infratuzilmasini rivojlantirish departamenti (F.Kushnazarov)	Vazir o'rinbosari **T.Komilov**
		2. Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarish axborot tizimida (keyingi o'rinlarda - axborot tizimi) davlat- xususiy sheriklik asosida nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish uchun elektron arizalarni qabul qilish tizimini joriy etish. Bunda, maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan davlat-xususiy sheriklik asosida nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari tashkil etish uchun taqdim etilgan arizalarga ijobiy xulosa berilganidan so'ng axborot tizimida avtomatik ravishda davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimni shakllantirish va imzolash uchun xususiy sherikka elektron shaklda jo'natishni nazarda tutish.	2024-yil noyabr		AKTni joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi (R.Musurmonov), Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi. Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari	Vazir o'rinbosari **S.Radjabov**

15.	Maktabga tayyorlov guruhlarini bitirgan bolalarga ularning rivojlanish xaritasi asosida bir yillik maktabga tayyorlovdan o'tganlik haqida elektron sertifikat berishni yo'lga qo'yish.	1. Maktabga tayyorlov guruhlarini bitirgan bolalarga bir yillik maktabga tayyorlovdan o'tganlik haqida elektron sertifikat berish tartibini belgilovchi nizomni tasdiqlash. 2. Nizomga asosan Maktabgacha ta'limni boshqarish axborot tizimida tayyorlov guruhlaridagi tarbiyalanuvchilarning "Ilm yo'li" o'quv dasturi asosida olib boriladigan mashg'ulotlar va ularning o'zlashtirilishini monitoring qilish va natijalarga ko'ra elektron sertifikat berish.	2026-2027-o'quv yilidan boshlab	—	Maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish departamenti (Sh.Muxamedov), Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari	Vazir o'rinbosari **S.Radjabov**

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2024-yil “3”-oktabrdagi
323-sonli buyrug‘iga
2-ILOVA

Tuman va shaharlarda tashkil etiladigan tayanch davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari RO‘YXATI

T/r	T/r	Hudud nomi	Tuman (shahar) nomi	Tayanch davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti tashkil etiladigan sonli DMTT to‘g‘risida ma’lumot			DMTT direktori to‘g‘risida ma’lumot	
				sonli DMTT raqami	Quvvati	Bolalar soni	F.I.Sh.	Mutaxassisligi
1	1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	Nukus shahri	48-sonli DMTT	230	278	Kudaybergenova Djamilya Polatovna	Maktabgacha ta’lim
2	2	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	Amudaryo tumani	40-sonli DMTT	140	180	Seytova Sharifa Egambergenovna	Maktabgacha ta’lim
3	3	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	Beruniy tumani	7-sonli DMTT	140	160	Tajimova Muhabbat Abdikadirovna	Maktabgacha ta’lim
4	4	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	Bo‘zotov tumani	8-sonli DMTT	120	117	Seytmuratova Ulbiyke Ongarbayevna	Maktabgacha ta’lim
5	5	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	Kegeyli tumani	1-sonli DMTT	180	210	Ametova Nazira Muratbayevna	Maktabgacha bolalar psixologiyasi va tarbiyachi
6	6	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	Qonliko‘l tumani	4-sonli DMTT	100	121	Najbenova Sveta Medetbayevna	Maktabgacha ta’lim tarbiyachisi

7	7	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Qorao'zak tumani	2-sonli DMTT	140	249	Paldanova Puxargul Esmurzayevna	Maktabgacha ta'lim tarbiyachisi
8	8	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Qo'ng'irot tumani	25-sonli DMTT	270	256	Erejepova Minayim Omirzakovna	Maktabgacha ta'lim
9	9	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Mo'ynoq tumani	10-sonli DMTT	160	149	Genjebayeva Gulshad Jalgasbayevna	Maktabgacha talim
10	10	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Nukus tumani	3-sonli DMTT	140	185	Asenbayeva Klara Xudaybergenovna	Maktabgacha ta'lim tarbiyachisi
11	11	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Taxiatosh tumani	8-sonli DMMT	180	180	Aybulatova Janil Sakiyevna	Maktabgacha talim
12	12	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Taxtako'pir tumani	3-sonli DMTT	140	165	Sadikova Ulzar Kewlimjayevna	Maktabgacha ta'lim tarbiyachisi
13	13	Qoraqalpog'iston Respublikasi	To'rtko'l tumani	16-sonli DMTT	320	348	Reimova Shaxlo Nuraddinovna	Pedagogika psixologiya, Maktabgacha ta'lim
14	14	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Xo'jayli tumani	15-sonli DMTT	280	360	Nizamadinova Gulistan Jengisovna	Maktabgacha ta'lim
15	15	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Chimboy tumani	19-sonli DMTT	120	120	Allaniyazova Zlixa Seytnazarovna	Maktabgacha ta'lim tarbiyachisi
16	16	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Sho'manay tumani	2-sonli DMTT	230	262	v.v.b Niyazbekova Gulsara Bazarbayevna	Maktabgacha ta'lim tarbiyachisi
17	17	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Ellikqal'a tumani	5-sonli DMTT	280	330	Saidalimova Ozoda Ibadullayevna	Maktabgacha ta'lim
18	1	Andijon viloyati	Andijon tumani	2-sonli DMTT	240	240	Kuchkarova Nozima Gofirjon qizi	Maktabgacha ta'lim
19	2	Andijon viloyati	Xonobod shahar	7-sonli DMTT	175	184	Meliyeva Xusnida Zarifovna	MTT oylaviy
20	3	Andijon viloyati	Bo'ston tumani	15-sonli DMTT	150	175	Azimova Dilfuza Kamoldinovna	Boshlangich ta'lim

21	4	Andijon viloyati	Qo'rg'ontepa tumani	2-sonli DMTT	150	325	Zulunova Dilfuza Romilovna	Matematika-informatika
22	**5**	Andijon viloyati	Marhamat tumani	20-sonli DMTT	200	183	Badalboyeva Zamira Jo'rayevna	Maktabgacha ta'lim
23	6	Andijon viloyati	Ulug'nor tumani	1-sonli DMTT	120	165	Turg'unboyeva Asalxon Salimjonovna	Maktabgacha ta'lim
24	7	Andijon viloyati	Andijon shahar	35-sonli DMTT	240	240	Kuldasheva Shaxnoza Zafarovna	Maktabgacha ta'lim
25	8	Andijon viloyati	Paxtaobod tumani	32-sonli DMTT	160	255	Aripova Surayyo Iminovna	Maktabgacha talim
26	9	Andijon viloyati	Buloqboshi tumani	24-sonli DMTT	240	240	Siyibboyeva Sanamxon Xorinovna	Maktabgacha ta'lim
27	10	Andijon viloyati	Baliqchi tumani	28-sonli DMTT	160	280	G'aniyeva NaziraErkimovna	Maktabgacha talim
28	11	Andijon viloyati	Asaka tumani	9-sonli DMTT	150	262	Axmedova Feruzaxon Odiljonovna	Maktabgachata 'l i im
29	12	Andijon viloyati	Oltinkol tumani	23-sonli DMTT	280	293	Xolmatova Muattar Aliyevna	Maktabgacha ta'lim
30	13	Andijon viloyati	Izboskan tumani	33-sonli DMTT	180	240	Qurbonova Dilfuza Toxirovna	Maktabgacha ta'lim
31	14	Andijon viloyati	Jalaquduq tumani	12-sonli DMTT	140	270	Holmuratova Odinaxon Mamitovna	Maktabgacha tarlim tarbiyachisi
32	15	Andijon viloyati	Xo'jaobod tumani	12-sonli DMTT	140	300	No'monova Zamiraxon Odiljon qizi	Maktabgacha ta'lim
33	16	Andijon viloyati	Shaxrixon tumani	15-sonli DMTT	140	295	Abdullayeva Tursunoy qoldashevna	Maktabgacha talim
34	1	Buxoro viloyati	Buxoro shahar	11-sonli DMTT	385	410	Botirova Halima Qoyirovna	Maktabgacha ta'lim

35	2	Buxoro viloyati	Kogon shahar	6-sonli DMTT	140	140	Raxmonova Sadoqat Yusupovna	Maktabgacha ta'lim
36	3	Buxoro viloyati	Olot tuman	23-sonli DMTT	180	180	Raxmonova Soxiba Aminjonovna	Maktabgacha ta'lim
37	4	Buxoro viloyati	Buxoro tumani	18-sonli DMTT	150	150	Odilova Marjona Sobir qizi	Maktabgacha ta'lim
38	5	Buxoro viloyati	Vobkent tuman	2-sonli DMTT	150	150	Azimova Kenja Hazratqulovna	Maktabgacha ta'lim tarbiyachisi
39	6	Buxoro viloyati	Kogon tuman	10-sonli DMTT	120	120	Xaydarova X. X.	Maktabgacha ta'lim
40	7	Buxoro viloyati	Jondor tuman	25-sonli DMTT	125	150	SaidovaVinera Sayfiddinovna	Maktabgacha ta'lim
41	8	Buxoro viloyati	G'ijduvon tuman	21-sonli DMTT	180	300	Ashurova Gulchehra Ravshanovna	Maktabgacha ta'lim
42	9	Buxoro viloyati	Qorako'l tuman	43-sonli DMTT	180	120	Yodgorova Shaxnoza Muhiddinovna	Maktabgacha ta'lim
43	10	Buxoro viloyati	Qorovulbozor tumani	2-sonli DMTT	180	173	Rajabova Kamola Xayrullayevna	Maktabgacha ta'lim
44	11	Buxoro viloyati	Peshku tuman	5-sonli DMTT	140	200	Sadullayeva Aziza Ismatulloyevna	Maktabgacha ta'lim
45	12	Buxoro viloyati	Romitan tuman	18-sonli DMTT	280	340	Narziyeva Oydin Ismatovna	Tarbiyachi
46	13	Buxoro viloyati	Shofirkon tuman	44-sonli DMTT	120	120	Azamova Amina Kamolovna	Maktabgacha ta'lim
47	1	Jizzax viloyati	Jizzax shahri	32-sonli DMTT	360	370	Jabborova Dilshoda Normurodovna	Maktabgacha ta'lim
48	2	Jizzax viloyati	Arnasoy tumani	6-sonli DMTT	120	200	G'aniyeva Shamigul Sharipovna	Maktabgacha ta'lim

49	3	Jizzax viloyati	Baxmal tumani	2-sonli DMTT	75	90	Mamatova Saboxat Mingboyevna	Maktabgacha ta'lim
50	4	Jizzax viloyati	G'allaorol tumani	14-sonli DMTT	330	330	Ergasheva Xusnora Ortiqovna	Maktabgacha ta'lim
51	5	Jizzax viloyati	Do'stlik tumani	5-sonli DMTT	180	175	Sharipova Feruza Abdukamilovna	Maktabgacha ta'lim
52	6	Jizzax viloyati	Zomin tumani	14-sonli DMTT	270	270	Oxunova Nurxon Fozilovna	Maktabgacha ta'lim
53	7	Jizzax viloyati	Zarbdor tumani	7-sonli DMTT	180	201	Karayeva Malohat Abdurayimovna	Maktabgacha ta'lim
54	8	Jizzax viloyati	Zafarobod tumani	1-sonli DMTT	240	354	Berdibekova Amangul Xayitbayevna	Maktabgacha ta'lim tarbiyachisi
55	9	Jizzax viloyati	Mirzacho'l tumani	7-sonli DMTT	120	188	Rashidova Xamraoy Xaitboyevna	Maktabgacha ta'lim
56	10	Jizzax viloyati	Paxtakor tumani	8-sonli DMTT	140	140	Tojiyeva Zebo Basarovna	Maktabgacha ta'lim
57	11	Jizzax viloyati	Forish tumani	1-sonli DMTT	280	260	Qazaqova Barno Erkinovna	Maktabgacha talim
58	12	Jizzax viloyati	Sh.Rashidov tumani	3-sonli DMTT	236	156	Ikromova Umida Raxmatovna	Maktabgacha ta'lim va bolalar sporti
59	13	Jizzax viloyati	Yangiobod tumani	7-sonli DMTT	70	120	Begmamatova Marhamat Nurmamatovna	Maktabgacha ta'lim
60	1	Qashqadaryo viloyati	Shahrisabz shahar	22-sonli DMTT	140	150	Saitova Diflıza Xalilovna	Maktabgacha ta'lim
61	2	Qashqadaryo viloyati	Mirishkor tumani	11-sonli DMTT	140	260	Bo'riyeva Muhabbat Islomovna	Maktabgacha ta'lim
62	3	Qashqadaryo viloyati	Shahrisabz tuman	35-sonli DMTT	160	236	Umirova Gulshan Numonovna	Maktabgacha ta'lim

63	4	Qashqadaryo viloyati	Kasbi tumani	3-sonli DMTT	125	155	Chulliyeva Nargiza Boymurodovna	Maktabgacha ta'lim
64	5	Qashqadaryo viloyati	Koson tumani	32-sonli DMTT	90	205	Rasulova Nuriya Olimovna	Maktabgacha ta'lim
65	6	Qashqadaryo viloyati	Qarshi shahar	36-sonli DMTT	210	210	Rajapova Zilolla Latipovna	Maktabgacha ta'lim
66	7	Qashqadaryo viloyati	Dehqonobod tumani	1-sonli DMTT	110	250	Soatova Mashhura Choriyorovna	Maktabgacha ta'lim
67	8	Qashqadaryo viloyati	Muborak tumani	4-sonli DMTT	150	150	Mirzayeva Dilbar Xamroqulovna	Maktabgacha ta'lim
68	9	Qashqadaryo viloyati	G'uzor tumani	1-sonli DMTT	150	180	G'ulomova Mastura Maxmudovna	Maktabgacha ta'lim
69	10	Qashqadaryo viloyati	Chiroqchi tumani	18-sonli DMTT	180	180	Xudoyqulova Guzal Shavkat qizi	Maktabgacha ta'lim
70	11	Qashqadaryo viloyati	Qamashi tumani	7-sonli DMTT	390	484	Ziyodullayeva Xurshida Xolmuminovna	Tarix fani o'qituvchisi
71	12	Qashqadaryo viloyati	Ko'kdala tumani	11-sonli DMTT	150	150	Toshtemirova Umida Umarjon qizi	Ingliz tili o'qituvchisi
72	13	Qashqadaryo viloyati	Kitob tuman	5-sonli DMTT	150	165	Turayeva Shoira Avloqulovna	Maktabgacha ta'lim
73	14	Qashqadaryo viloyati	Qarshi tuman	5-sonli DMTT	180	200	Raxmonova Sevara Raxmatillayevna	Maktabgacha ta'lim
74	15	Qashqadaryo viloyati	Nishon tumani	19-sonli DMTT	180	330	Shaymurodova Maftuna Xasanova	Maktabgacha ta'lim
75	16	Qashqadaryo viloyati	Yakkabog' tuman	5-sonli DMTT	150	230	Maxmadaliyeva Shoira Xurramovna	Maktabgacha ta'lim
76	1	Navoiy viloyati	Navoiy shahri	26-sonli DMTT	420	400	Egamova Adolat Sharifovna	Maktabgacha ta'lim

77	2	Navoiy viloyati	Zarafshon shahri	15-sonli DMTT	420	420	Mardonova Baxriya Sulaymonovna	Maktabgacha ta'lim
78	3	Navoiy viloyati	G'azg'on shahri	1-sonli DMTT	280	238	Raxmatova Gulnoz Shavkat qizi	Maktabgacha ta'lim
79	4	Navoiy viloyati	Konimex tumani	8-sonli DMTT	120	115	Tohirova Ilmera Zairovna	Maktabgacha ta'lim tarbiyachisi
80	5	Navoiy viloyati	Karmana tumani	12-sonli DMTT	150	139	Boboxolova Gulshan Igamberdiyevna	Maktabgacha ta'lim
81	6	Navoiy viloyati	Qiziltepa tumani	8-sonli DMTT	210	310	Djiyanova Dilorom Gaybullayevna	Maktabgcha ta'lim
82	7	Navoiy viloyati	Navbahor tumani	10-sonli DMTT	150	150	Ikromova Dildor Toshqulovna	Maktabgacha ta'lim
83	8	Navoiy viloyati	Nurota tumani	10-sonli DMTT	150	170	Shomurodova Nafisa Dilbarovna	Maktabgacha ta'lim
84	9	Navoiy viloyati	Tomdi tumani	4-sonli DMTT	100	88	Aytenova Guljaxan Bauirjanovna	Maktabgacha ta'lim
85	10	Navoiy viloyati	Uchquduq tumani	10-sonli DMTT	160	185	Rajabova Mahliyo Ummatovna	Maktabgacha ta'lim
86	11	Navoiy viloyati	Xatirchi tumani	8-sonli DMTT	150	200	Qodirova Shaxnoza Ilhomovna	Maktabgacha ta'lim
87	1	Namangan viloyati	Namangan shahar	64-sonli DMTT	180	208	Nasritdinova Yorqinoy Sayfitdinovna	maktabgacha ta'lim
88	2	Namangan viloyati	Davlatobod tumani	46-sonli DMTT	385	380	Mamajanova Nigora Djalovna	Pedogogik psixolog
89	3	Namangan viloyati	Y angi Namangan tumani	2-sonli DMTT	120	265	Qambarova Nigora Rafikjanovna	Maktabgacha ta'lim
90	4	Namangan viloyati	Kosonsoy tumani	7-sonli DMTT	140	212	Alixonova Latifaxon N o 'monxonovna	Maktabgacha ta'lim

91	5	Namangan viloyati	Mingbuloq tumani	5-sonli DMTT	125	122	Axmadaliyeva Yulduz Qoryog'diyevna	Maktabgacha ta'lim
92	6	Namangan viloyati	Namangan tumani	11-sonli DMTT	280	411	Aliakbarolva Nargiza Latifovna	Maktabgacha ta'lim
93	7	Namangan viloyati	Norin tumani	38-sonli DMTT	100	156	Djalolova Saxodat Toshpulatovna	Maktabgacha ta'lim
94	8	Namangan viloyati	To'raqo'rg'on tumani	24-sonli DMTT	140	335	Po'latova Yoqutxon Ergashevna	Maktabgacha ta'lim
95	9	Namangan viloyati	Pop tumani	3-sonli DMTT	140	180	Sharipova Ra'no Arabbayevna	Maktabgacha ta'lim
96	10	Namangan viloyati	Uychi tumani	6-sonli DMTT	140	190	Xasanova Gavxarxon Axmadjonovna	Pedagogkika psixalogiya
97	11	Namangan viloyati	Uchko'rg'on tumani	42-sonli DMTT	360	421	Norbo'tayeva Shoiraxon Mamadaliyeva	Maktabgacha ta'lim
98	12	Namangan viloyati	Chortoq tumani	17-sonli DMTT	300	451	Axmadjanova Nigora Maxmudovna	Pedagogkika psixalogiya
99	13	Namangan viloyati	Chust tumani	59-sonli DMTT	70	150	Bakiyeva Muxabbat Kayumovna	Maktabgacha ta'lim
100	14	Namangan viloyati	Yangiqo'rg'on tumani	5-sonli DMTT	140	300	Jo'rayeva Gulbaxor Musaljonovna	Maktabgacha ta'lim va bolalar sporti
101	1	Samarqand viloyati	Samarqand shahar	48-sonli DMTT	360	240	Voseeva Firuza Xasanovna	Maktabgacha ta'lim
102	2	Samarqand viloyati	Kattaqo'rg'on shahar	8-sonli DMTT	240	260	Fayzullayeva Feruza Botirovna	Maktabgacha pedagogika va psixologiya
103	3	Samarqand viloyati	Bulung'ur tumani	15-sonli DMTT	100	140	Achilova Dilorom Almamatovna	Maktabgacha ta'lim

104	4	Samarqand viloyati	Jomboy tumani	16-sonli DMTT	160	397	Pardayeva Yulduz Murodullayevna	Maktabgacha ta'lim va bolalar sporti
105	5	Samarqand viloyati	Ishtixon tumani	3-sonli DMTT	150	275	Achilova Ra'no Ergashevna	Maktabgacha ta'lim tarbiyachisi
106	6	Samarqand viloyati	Kattaqo'rg'on tumani	23-sonli DMTT	120	120	Xudayberdiyeva Zamira Baxriddinovna	Pedagogika va psixologiya
107	7	Samarqand viloyati	Oqdaryo tumani	14-sonli DMTT	150	150	Turdiyeva Zilola G'ulomiddinovna	Maktabgacha ta'lim
108	8	Samarqand viloyati	Narpay tumani	3-sonli DMTT	125	140	Djurayeva Ozoda Samarovna	Maktabgacha ta'lim
109	9	Samarqand viloyati	Nurobod tumani	11-sonli DMTT	160	195	Umurzaqova Xolniso Nurullayevna	Maktabgacha pedagogika va psixologiya
110	10	Samarqand viloyati	Payariq tumani	47-sonli DMTT	120	150	Jonqobilova Mubora Tutqiyevna	Maktabgacha ta'lim
111	11	Samarqand viloyati	Pastdarg'om tumani	19-sonli DMTT	120	150	Mansurova Shaxnoza Karimovna	Maktabgacha ta'lim tarbiyachisi
112	12	Samarqand viloyati	Paxtachi tumani	7-sonli DMTT	150	150	Bobonazarova Shazoda Ismailovna	Maktabgacha ta'lim
113	13	Samarqand viloyati	Samarqand tumani	11-sonli DMTT	150	210	Abdullayeva Zarnigor Anvarovna	Tarix
114	14	Samarqand viloyati	Toyloq tumani	44-sonli DMTT	150	150	Doliyeva Nafisa Ixtiyorovna	Maktabgacha ta'lim
115	15	Samarqand viloyati	Urgut tumani	12-sonli DMTT	120	210	Murodova Nafisa Maxmudovna	Maktabgacha ta'lim
116	16	Samarqand viloyati	Qo'shrabot tumani	1-sonli DMTT	210	210	Uzoqova Feruza Baxriddinovna	Rus-tili va adabiyoti
117	1	Surxondaryo viloyati	Termiz shahar	31-sonli DMTT	385	610	v.b.N ormamatova Shoxista Ne'matovna	Maktabgacha ta'lim

118	2	Surxondaryo viloyati	Angor tumani	1-sonli DMTT	200	254	Pirnazarova Nargiza Musurmanovna	Maktabgacha ta'lim
119	3	Surxondaryo viloyati	Boysun tumani	4-sonli DMTT	120	318	Odinayeva Dilorom Tangriqulovna	Maktabgacha ta'lim
120	4	Surxondaryo viloyati	Bandixon tumani	9-sonli DMTT	90	90	Xolmatova Muyassar Adinakulovna	Maktabgacha ta'lim
121	5	Surxondaryo viloyati	Denov tumani	10-sonli DMTT	225	230	Turdiyeva Sayyora Toshtemirovna	Maktabgacha ta'lim
122	6	Surxondaryo viloyati	Jarqo'rg'on tumani	46-sonli DMTT	150	150	Raxmonova Gulnora Raxmatullayevna	Maktabgacha ta'lim
123	7	Surxondaryo viloyati	Muzrabot tumani	3-sonli DMTT	140	295	Davronova Nazira To'rayevna	Maktabgacha ta'lim
124	8	Surxondaryo viloyati	Oltinsoy tumani	9-sonli DMTT	120	240	Abdumuratova Ruzixol Almardonovna	Maktabgacha ta'lim
125	9	Surxondaryo viloyati	Sariosiyo tumani	35-sonli DMTT	150	180	Xikmatullayeva Zarina Farxodovna	Maktabgacha ta'lim
126	10	Surxondaryo viloyati	Termiz tumani	4-sonli DMTT	280	280	Xujamberdiyeva Moxira Irkinovna	Maktabgacha ta'lim
127	11	Surxondaryo viloyati	Uzun tumani	1-sonli DMTT	200	300	Aliyeva Bashorat Ergashovna	Maktabgacha ta'lim
128	12	Surxondaryo viloyati	Sherobod tumani	13-sonli DMTT	125	263	Norboyeva Fotima Salimovna	Maktabgacha ta'lim
129	13	Surxondaryo viloyati	Sho'rchi tumani	20-sonli DMTT	150	150	Raximova Ug'iljamol Abdurasulovna	Maktabgacha ta'lim
130	14	Surxondaryo viloyati	Qiziriq tumani	16-sonli DMTT	90	120	Xoliqova Gulchexra Zoirovna	Maktabgacha ta'lim
131	15	Surxondaryo viloyati	Qumqo'rg'on tumani	1-sonli DMTT	300	295	Abdiyeva Shoxida Xo'shboqovna	Maktabgacha ta'lim

132	1	Sirdaryo viloyati	Boyovut tumani	18-sonli DMTT	140	165	Ashirova Maxsuda Eshmamatovna	Ona tili o'qituvchisi
133	2	Sirdaryo viloyati	Guliston tumani	2-sonli DMTT	160	172	Xo'jaboyeva Nigora Rahmatovna	Boshlang'ich ta'lim
134	3	Sirdaryo viloyati	Mirzaobod tumani	9-sonli DMTT	140	115	Karimova Durdona Abduraxmonovna	Boshlang'ich ta'lim
135	4	Sirdaryo viloyati	Oqoltin tumani	1-sonli DMTT	150	151	Abdirahimova Firuza Ergashevna	Rus tili o'qituvchisi
136	5	Sirdaryo viloyati	Sayxunobod tumani	1-sonli DMTT	150	140	Nurmatova Feruza Yuldashevna	Maktabgacha ta'lim
137	6	Sirdaryo viloyati	Sardoba tumani	10-sonli DMTT	140	217	Kuvatova Saodat Ulugovna	Matematika va informatika fani o'qituvchisi
138	7	Sirdaryo viloyati	Sirdaryo tumani	9-sonli DMTT	385	385	Qutduzova Gulnoza Gafurovna	Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachisi
139	8	Sirdaryo viloyati	Xovos tumani	3-sonli DMTT	120	120	Murodova Shohida Olimqulovna	Boshlang'ich ta'lim
140	9	Sirdaryo viloyati	Guliston shahar	15-sonli DMTT	250	276	Bayzakova Madina Ibragimovna	Boshlang'ich ta'lim
141	10	Sirdaryo viloyati	Yangiyer shahar	6-sonli DMTT	380	482	Turdiqulova Nodira Abdullajonovna	Rus tili o'qituvchisi
142	11	Sirdaryo viloyati	Shirin shahar	4-sonli DMTT	280	174	Sheraliyea Xolida Abduhoshimovna	Maktabgacha ta'lim
143	1	Toshkent viloyati	Olmaliq shahar	9-DMTT	240	174	Ne'matullayeva Feruza Safarovna	Maktabgacha ta'lim
144	2	Toshkent viloyati	Angren shahar	14-DMTT	380	420	Bobajanov Shuhrat Alimamatovich	Maktabgacha ta'lim
145	3	Toshkent viloyati	Ohangaron shahar	15-DMTT	165	165	Sattarova Moxiraxon Muxammadovna	Maktabgacha ta'lim

146	4	Toshkent viloyati	Bekobod shahar	8 DMTT	280	244	Yegizbayeva Aygul Turgunbayevna	Pedagogika
147	5	Toshkent viloyati	Nurafshon shahar	7-DMTT	240	240	Mihtiboyeva Dilobar Ergashovna	Maktabgacha ta'lim
148	6	Toshkent viloyati	Chirchiq shahar	12-DMTT	175	180	Karimova Diyora To'rayevna	Maktabgacha ta'lim
149	7	Toshkent viloyati	Yangiyo'l shahar	8-DMTT	210	248	Muxamedjanova Dilorom Axmedovna	Maktabgacha ta'lim
150	8	Toshkent viloyati	Oqqo'rg'on tumani	1-DMTT	390	372	Saydeva Ra'no Ummatqulovna	Boshlang'ich ta'lim va tarbiyaviy ish
151	9	Toshkent viloyati	Ohangaron tuman	38-DMTT	120	112	Abdiyeva Barno Nuriddinovna	Maktabgacha ta'lim
152	10	Toshkent viloyati	Bekobod tumani	11-DMTT	140	213	Sultonova Mohiya Yusufjonovna	Maktabgacha ta'lim
153	11	Toshkent viloyati	Bo'stonliq tumani	17-DMTT	210	210	Mamaraimova Charos Tadjibayevna	Maktabgacha ta'lim
154	12	Toshkent viloyati	Bo'ka tuman	15- DMTT	150	180	Yunusaliyeva Zulayxo Jaylovovna	Maktabgacha ta'lim
155	13	Toshkent viloyati	Zangiota tumani	18-DMTT	360	409	Soliyeva Fotima Sagdullayevna	Maktabgacha ta'lim
156	14	Toshkent viloyati	Qibray tumani	3-DMTT	125	124	Turg'unova Nasiba Foziljonovna	Maktabgacha ta'lim
157	15	Toshkent viloyati	Quyi Chirchiq tumani	22-DMTT	160	160	Amanova Dilorom Faxroddinovna	Maktabgacha ta'lim
158	16	Toshkent viloyati	Parkent tumani	18-DMTT	360	360	Shosaitova Shoira Shorustamova	Maktabgacha ta'lim
159	17	Toshkent viloyati	Piskent tumani	17-DMTT	280	345	Mamatqulova Aqida Xaydarovna	Maktabgacha ta'lim

160	18	Toshkent viloyati	Toshkent tumani	9-DMTT	560	490	Kuchqarova Odina Akramjon qizi	Maktabgacha ta'lim
161	19	Toshkent viloyati	O'rta Chirchiq tumani	19-DMTT	325	325	Saidova Xojinisa Muxitdinovna	Maktabgacha ta'lim
162	20	Toshkent viloyati	Chinoz tumani	13-DMTT	210	210	Saidusmanova Jamila Tulkunovna	Maktabgacha ta'lim
163	21	Toshkent viloyati	Yuqori Chirchiq tumani	16-DMTT	150	150	Xalikulova Aqmarjan Tojikulovna	Qozoq tili va adabiyoti
164	22	Toshkent viloyati	Yangiyo'l tuman	5-DMTT	400	400	Nurmatova Saida Raximxuj ayevna	Maktabgacha ta'lim
165	1	Farg'ona viloyati	Farg'ona shahar	5-sonli DMTT	240	251	Umarova Mashxura Saminjonovna	Pedagogika-Psixologiya
166	2	Farg'ona viloyati	Beshariq tumani	8-sonli DMTT	180	300	Qobilova Sharofatxon Roziqovna	Pedagogika-psixologiya
167	3	Farg'ona viloyati	Quvasoy shahar	13-sonli DMTT	120	120	Muminjanova Nilufar Muxammadovna	Rus tili filologoya
168	4	Farg'ona viloyati	Oltiariq tumani	37-sonli DMTT	450	450	Xojiyeva Xayotxon G'aniyevna	Rus tili filologoya
169	5	Farg'ona viloyati	So'x tumani	14-sonli DMTT	120	195	Domulloyeva Zulfiya Karimjonovna	Maktabgacha ta'lim
170	**6**	Farg'ona viloyati	Bag'dod tumani	5-sonli DMTT	240	240	Mullayeva Maftuna Nurali qizi	Bolalar psixologiyasi va maktabgacha ta'lim
171	7	Farg'ona viloyati	O'zbekiston tumani	9-sonli DMTT	360	360	Nazirova Maxmuda Majidovna	Pedagogika-psixologiya
172	8	Farg'ona viloyati	Buvayda tumani	31-sonli DMTT	140	240	Ergasheva Soliya Usmonovna	Maktabgacha ta'lim
173	9	Farg'ona viloyati	Uchko'prik tumani	6-sonli DMTT	240	300	Oxunova Kamola Mansurovna	Maktabgacha ta'lim va bolalar sporti

174	10	Farg'ona viloyati	Quva tumani	2-sonli DMTT	140	205	Babayeva Lochinoy Abdujalilovna	Geografiya
175	11	Farg'ona viloyati	Qo'shtepa tumani	4-sonli DMTT	230	378	Oxunova Dilnoza Erkinovna	Boshlang'ich ta'lim
176	12	Farg'ona viloyati	Yozyovon tumani	24-sonli DMTT	120	250	Qobulova Maxsudaxon Sidiqovna	Defektolog
177	13	Farg'ona viloyati	Dang'ara tumani	8-sonli DMTT	300	378	Abdullayeva Azimaxon Ahrorqulovna	Pedagogika va boshlang'ich ta'lim metodikasi
178	14	Farg'ona viloyati	Toshloq tumani	2-sonli DMTT	450	450	Azimova Nasiba Nabiyeevna	Maktabgacha ta'lim
179	15	Farg'ona viloyati	Marg'ilon shahar	3-sonli DMTT	280	360	O'rmonova Salomatxon Ibragimovna	Pedagogika-psixologiya
180	16	Farg'ona viloyati	Furqat tumani	10-sonli DMTT	140	210	Qayumova Feruza Ergashaliyevna	Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi
181	17	Farg'ona viloyati	Qo'qon shahar	29-sonli DMTT	360	280	Rasulova Shoxsanam Shuhratovna	Pedagogika-psixologiya
182	18	Farg'ona viloyati	Farg'ona tumani	32-sonli DMTT	300	300	Abdullayeva Naziraxon A'zamjonovna	Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi
183	19	Farg'ona viloyati	Rishton tumani	63-sonli DMTT	200	225	Ismoilova Muattar Abduholiqovna	Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi
184	1	Xorazm viloyati	Urganch shahar	30-son DMTT	280	279	Kutlimuratova Ikbol Rustamovna	Maktabgacha ta'lim
185	2	Xorazm viloyati	Xiva shahar	15-son DMTT	340	340	Madrimova Gulnora Mashariqovna	Maktabgacha ta'lim tarbiyachisi
186	3	Xorazm viloyati	Bog'ot tuman	22-son DMTT	280	279	Matyaqubova Shaxnoza Farhodovna	Maktabgacha ta'lim

187	4	Xorazm viloyati	Gurlan tumani	8-son DMTT	140	222	Sherjanova Ra'no Ochilovna	Maktabgacha ta'lim
188	5	Xorazm viloyati	Qo'shko'pr tuman	33-son DMTT	100	246	Bayjonova Faroxat Abdushariipovna	Maktabgacha ta'lim
189	6	Xorazm viloyati	Urganch tumani	25-son DMTT	120	202	Doschanova Nilufar Ramanberganovna	Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachisi
190	7	Xorazm viloyati	Hazorasp tuman	20-son DMTT	150	180	Jumaniyozova Surayyo Osqarbekovna	Maktabgacha ta'lim tarbiyachisi
191	8	Xorazm viloyati	Xiva tumani	10-son DMTT	180	228	Sabirova Shirinoy Qadirovna	Maktabgacha ta'lim va bolalar sporti
192	9	Xorazm viloyati	Xonqa tumani	27-son DMTT	120	180	Yusupova Muxabbat Axmedovna	Maktabgacha ta'lim va bolalar sporti
193	10	Xorazm viloyati	Shovot tuman	40-son DMTT	120	200	Yarmetova Dilfuza Shiximboyevna	O'zbek tili va adabiyoti
194	11	Xorazm viloyati	Yangiariq tuman	21-son DMTT	120	144	Jumaniyozova Dilnura Baxtiyorovna	Maktabgacha ta'lim
195	12	Xorazm viloyati	Yangibozor tuman	2-son DMTT	120	238	Saparboyeva Zevarjon	Maktabgacha ta'lim
196	13	Xorazm viloyati	Tuproqqal'a	7-son DMTT	360	514	Xodjabayeva Nodira Maxsudovna	Hayot faoliyati asoslari, Amaliyotchi psixolog
197	1	Toshkent shahar	Bektemir tumani	577-sonli DMTT	420	400	Rasulova Dilrabo Baxadirovna	Maktabgacha ta'lim
198	2	Toshkent shahar	Mirobod tumani	34-sonli DMTT	210	150	Turdiyeva Nodira Kobilovna	Defektolog
199	3	Toshkent shahar	Mirzo Ulug'bek tumani	56-sonli DMTT	240	206	Sulaymanqulova Dilrabo Mahmutj onovna	Maktabgacha ta'lim

200	4	Toshkent shahar	Olmazor tumani	146-sonli DMTT	420	395	Mahkamova Gulnora Vahobjanovna	Maktabgachatarbiya pedagogika psihologya o'qituvchisi
201	5	Toshkent shahar	Sergeli tumani	42-sonli DMTT	345	276	Rixsiboyeva Madina Nigmatillayevna	Defektologiya
202	6	Toshkent shahar	Uchtepa tumani	341-sonli DMTT	510	502	Abdullayeva Kimyo Adilovna	Maktabgacha ta'lim
203	7	Toshkent shahar	Chilonzor tumani	537-sonli DMTT	390	220	To'xtayeva Dilnavoz Jabbarovna	Maktabgacha ta'lim
204	8	Toshkent shahar	Shayxontohur tumani	461-sonli DMTT	330	170	Imamnazarova Gavxar Isroilovna	Maktabgacha ta'lim va bolalar sporti
205	9	Toshkent shahar	Yunusobod tumani	43-sonli DMTT	240	250	Alimova Dilnoza Djuraboyevna	Maktabgacha ta'lim
206	10	Toshkent shahar	Yakkasaroy tumani	100-sonli DMTT	360	351	Inomova Shoxista Sadirovna	Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi
207	11	Toshkent shahar	Yashnobod tumani	240-sonli DMTT	240	180	Mamadaliyeva Farog'at Axmadjonovna	Maktabgacha ta'lim
208	12	Toshkent shahar	Yangihayot tumani	122-sonli DMTT	720	647	Mavlanova Xadicha Usanovna	Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Inklyuziv ta’lim joriy qilingan umumiy o‘rta ta’lim maktablarida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning kasbiy mahoratini oshirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi va Rossiya Federatsiyasi Ta’lim vazirligi tomonidan imzolangan 2024-2025-yillarga mo‘ljallangan qo‘shma dasturlarni amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasiga asosan inklyuziv ta’lim joriy qilingan umumiy o‘rta taTim maktablarida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning kasbiy mahoratini oshirish maqsadida **buyuraman:**

1.O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi va Rossiya Federatsiyasi Ta’lim vazirligi o‘rtasida 2024-2025-yillarga mo‘ljallangan qo‘shma dasturlarni amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi (keyingi o‘rinlarda - chora-tadbirlar rejasi) imzolanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Chora-tadbirlar rejasi doirasida quyidagilar:

respublikadagi inklyuziv ta’lim joriy qilingan umumiy o‘rta ta’lim maktablarida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning kasbiy mahoratini oshirish bo‘yicha 72 soatlik qisqa muddatli malaka oshirish kurslari (keyingi o‘rinlarda - malaka oshirish kurslari) Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutida joriy yilning oktabr-noyabr oylarida ishlab chiqarishdan ajralgan holda va mustaqil ta’lim olish shaklida tashkil etilishi;

malaka oshirish kurslarining o‘quv dasturi A.I.Gersen nomidagi Rossiya davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgani va tasdiqlangani;

malaka oshirish kurslarining mashg‘ulotlari A.I.Gersen nomidagi Rossiya davlat pedagogika universiteti professor-o‘qituvchilari tomonidan o‘tkazilishi inobatga olinsin.

3. Quyidagilar:

2024-2025-yillarga mo‘ljallangan qo‘shma dasturlarni amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi doirasida inklyuziv ta’lim joriy qilingan umumiy o‘rta ta’lim maktablarida faoliyat

yuritayotgan pedagoglarning kasbiy mahoratini oshirish bo‘yicha malaka oshirish kurslariga jalb etiladigan pedagoglar ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq;

2024-2025-yillarga mo‘ljallangan qo‘shma dasturlarni amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi doirasida inklyuziv ta’lim joriy qilingan umumiy o‘rta ta’lim maktablarida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning kasbiy mahoratini oshirish bo‘yicha malaka oshirish kurslariga jalb etiladigan tinglovchilar tomonidan taqdim etiladigan hujjatlar ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Belgilansinki:

Inklyuziv ta’lim va mehrli maktab faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi (R.To‘rayev) malaka oshirish kurslari o‘tkazilishini muvofiqlashtirib boradi;

A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti malaka oshirish kurslarini tashkil etish va o‘tkazishga mas’ul hisoblanadi.

5. A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti (A.Ismailov), Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti (N.Abdunazarova)ga:

malaka oshirish kurslarini tashkil etishda A.I.Gersen nomidagi Rossiya davlat pedagogika universiteti professor-o‘qituvchilariga amaliy yordam berish;

malaka oshirish kurslari tinglovchilarini Toshkentda kutib olish va kurs yakunida doimiy yashash hududlariga kuzatish ishlarini tashkil qilish;

malaka oshirish kurslari tinglovchilarining mashg‘ulotlarda to‘liq ishtirok etishlarini nazorat qilish;

malaka oshirish kurslariga jalb etiladigan tinglovchilarning 2-ilovada ro‘yxati keltirilgan hujjatlarini jamlash hamda A.I.Gersen nomidagi Rossiya davlat pedagogika universitetiga taqdim etish;

malaka oshirish kurslariga jalb etiladigan tinglovchilarni A.I.Gersen nomidagi Rossiya davlat pedagogika universitetining maxsus elektron platformasida ro‘yxatdan o‘tishlariga hamda kurs yakuni bo‘yicha ushbu maxsus elektron platforma orqali tinglovchilarning sertifikatlarini olishlariga ko‘maklashish;

malaka oshirish kurslari uchun auditoriyalar ajratish va zarur jihozlar bilan ta’minlash;

malaka oshirish kurslari tinglovchilarini yotoqxona bilan ta’minlash;

malaka oshirish kurslari yakuni bo‘yicha vazirlikka axborot kiritish vazifalari yuklatilsin.

6. Jizzax, Toshkent, Sirdaryo viloyatlari hamda Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari:

malaka oshirish kurslariga masofaviy shaklda jalb etilgan tinglovchilarga o‘z vaqtida mashg‘ulotlarda ishtirok etishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;

malaka oshirish kurslariga ishlab chiqarishdan ajralgan holda jalb etilgan tinglovchilarni ish joyi va ish haqi saqlangan holda malaka oshirish kurslarida ishtirok etishini ta’minlash hamda ularning xizmat safari bilan bog‘liq xarajatlarni asosiy ish joyidan qoplanishini nazorat qilish;

malaka oshirish kurslariga jalb etiladigan tinglovchilarning hujjatlarini A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutiga taqdim etish choralarini ko‘rsin.

7. Axborot xizmati (D.Sobirova) malaka oshirish kurslarini ommaviy-axborot vositalari va vazirlikning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida keng yoritilishini ta’minlasin.

8. Devonxona (H.Raximbayeva) mazkur buyruqni tegishli tarkibiy bo‘linmalar, Jizzax, Toshkent, Sirdaryo viloyatlari hamda Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalariga yetkazilishini ta’minlasin.

9. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o‘rmbosari S.Radjabov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2024-yil 22-oktabr,
344-son

2024-2025-yillarga mo‘ljallangan qo‘shma dasturlarni amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi doirasida inklyuziv ta’lim joriy qilingan umumiy o‘rta ta’lim maktablarida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning kasbiy mahoratini oshirish bo‘yicha malaka oshirish kurslariga jalb etiladigan tinglovchilarning hududlar kesimidagi TAQSIMOTI

T/r	Hudud nomi	Masofaviy shaklda	Ishlab chiqarishdan ajratilgan shaklda
		22-26-oktabr kunlari	28-oktabr - 2-noyabr kunlari
1.	Jizzax viloyati	10	10
2.	Sirdaryo viloyati	10	10
3.	Toshkent viloyati	20	20
4.	Toshkent shahri	60	60
	Jami	**100**	**100**

2024-2025-yillarga mo‘ljallangan qo‘shma dasturlarni amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi doirasida inklyuziv ta’lim joriy qilingan umumiy o‘rta ta’lim maktablarida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning kasbiy mahoratini oshirish bo‘yicha malaka oshirish kurslariga jalb etiladigan tinglovchilar tomonidan taqdim etiladigan hujjatlar
RO‘YXATI

T/r	Hujjatlar
1.	Pasport (ID karta) nusxasi *(rus tiliga tarjimasi bilan birga)*.
2.	O‘rta maxsus, kasb-hunar yoki oliy ta’lim muassasalarining “Maktabgacha ta’lim” yo‘nalishida o‘qiganligi haqidagi diplom nusxasi *(rus tiliga tarjimasi bilan birga)*.
3.	Familiyasi, ismi yoki otasining ismi o’zgargan bo’lsa, tasdiqlovchi hujjat nusxasi *(rus tiliga tarjimasi bilan birga)*.
4.	Shaxsiy ma’lumotlardan foydalanishga rozilik berish *(tasdiqlangani)*.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Maktabgacha va maktab ta’limi tizimida malaka oshirishning “vazirlik - malaka oshirish muassasasi - ta’lim tashkiloti” vertikal tizimini joriy etish haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2024-yil 30-sentabr kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan muloqot tarzidagi videoselektor yig‘ilishining bayonida berilgan topshiriqlar ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2024-yil 30-sentabr kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan muloqot tarzidagi videoselektor yig‘ilishida Maktabgacha va maktab ta’limi tizimida malaka oshirishning “vazirlik - malaka oshirish muassasasi - ta’lim tashkiloti” vertikal tizimi joriy etilishi bo‘yicha topshirig‘i ijro uchun qabul qilinsin.

2. Maktabgacha va maktab ta’limi tizimida malaka oshirishning “vazirlik - malaka oshirish muassasasi - ta’lim tashkiloti” vertikal tizimi (keyingi o‘rinlarda - malaka oshirishning vertikal tizimi) to‘g‘risida tartib ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Pedagog kadrlarni tayyorlash va kasbiy rivojlantirish boshqarmasi (M.Yuldashev) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar hamda viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlari bilan birgalikda malaka oshirishning vertikal tizimini 2025-yil 1-yanvardan amaliyotga joriy etib, belgilangan vazifalarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlasin.

4. Devonxona (H.Raximbayeva) bir kun muddatda ushbu buyruqni vazirlik markaziy apparati tarkibiy bo‘linmalari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar hamda viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari, A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar pedagogik mahorat markazlariga yetkazsin.

5. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o‘rinbosari S.Radjabov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2024-yil 24-oktabr,
347-son

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2024-yil 25-oktabrdagi
347-son buyrug‘iga
ILOVA

Maktabgacha va maktab ta’limi tizimida malaka oshirishning “vazirlik - malaka oshirish muassasasi - ta’lim tashkiloti” vertikal tizimi to‘g‘risida
TARTIB

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Tartib maktabgacha va maktab ta’limi tizimidagi pedagog xodimlar uchun malaka oshirishning “vazirlik - malaka oshirish muassasasi - ta’lim tashkiloti” vertikal tizimini (keyingi o‘rinlarda - Vertikal tizim) tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Vertikal tizim maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari pedagog xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlanishini boshqarish samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan.

3. Ushbu Tartibda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

vazirlik - Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi;

ta’lim tashkiloti - vazirlik tasarrufidagi umumiy o‘rta ta’lim maktabi hamda maktabgacha ta’lim tashkiloti;

“Kasbiy rivojlanish kuni” - o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish, ijodiy ishlash va o‘z bilimini muntazam boyitib borish, zamonaviy o‘qitish metodikasi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan unumli foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun o‘quv-seminar, trening, mahorat darslari va mustaqil ta’lim tadbirlari o‘tkazilishi belgilangan haftaning muayyan kuni.

“Kasbiy rivojlanish soati” - kasbiy rivojlanish kunlarida tashkil etilgan o‘quvlarda o‘qituvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan yangi bilim va ko‘nikmalarni o‘zlari faoliyat ko‘rsatayotgan umumta’lim maktablarida qo‘llashlarini tahlil qilish, ularga zarur metodik yordam ko‘rsatish, kasbiy rivojlanish uchun tavsiyalar berish, dars kuzatish, refleksiv amaliyot hamda umumiy o‘rta ta’lim maktabi negizida malaka oshirish tadbirlari o‘tkaziladigan soatlar;

malaka oshirish kursi - malaka oshirishning tasdiqlangan

o‘quv rejasi va dasturlari asosida ishlab chiqilgan mashg‘ulotlar tizimi;

malaka oshirish muassasasi - A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti va hududiy pedagogik mahorat markazlari;

pedagog xodimlar - ta’lim tashkilotlarida qonunchilik hujjatlariga muvofiq tuzilgan mehnat shartnomasi asosida ta’lim va tarbiya sohasida kasbiy faoliyatni amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar;

tinglovchi - kasbiy rivojlantirish ta’lim tashkilotining qayta tayyorlash yoki malaka oshirish kursiga qabul qilingan xodim;

“Uzluksiz kasbiy ta’lim” maxsus elektron platformasi (keyingi o‘rinlarda - elektron platforma) - o‘quv modullari kontentlarini yaratish, saqlash va ularni ta’lim oluvchilarga taqdim etish, shuningdek, ta’lim oluvchilarni ro‘yxatga olish va ularga o‘quv modullarini onlayn tarzda o‘zlashtirish imkoniyatini beruvchi maxsus elektron dasturiy tizim;

elektron portfolio - rahbar, pedagog va mutaxassis xodimlarning kasbiy faoliyati va mustaqil malaka oshirish natijalarini baholashga qaratilgan o‘quv-metodik, ilmiy-tadqiqot va ijodiy ish materiallarini qamrab oluvchi ma’lumotlar bazasi.

2-bob. Vertikal tizimning maqsadi va vazifalari

4. Vertikal tizimni tashkil etishning maqsadi pedagog xodimlarni uzluksiz kasbiy rivojlanishini boshqarish jarayonlarining sifati va samaradorligini oshirishdan iborat.

5. Vertikal tizimning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

vazirlik, malaka oshirish muassasasi va ta’lim tashkilotlari o‘rtasida bevosita axborot almashish imkoniyatini yaratish;

vazirlik tomonidan pedagog xodimlar malakasini oshirishga doir beriladigan buyruq, topshiriq, yo‘riqnoma va ko‘rsatmalarning bevosita malaka oshirish muassasalari va ular orqali ta’lim tashkilotlariga yetib borishini ta’minlash;

ta’lim tashkilotlarining pedagog xodimlar malakasini oshirishga doir ma’lumotlarini bevosita malaka oshirish muassasalari orqali vazirlikka yetib kelishini ta’minlash;

ta’lim tashkilotlarining pedagog xodimlarini malakasini oshirishga doir ehtiyojlari va mavjud muammolari haqidagi

ma’lumotlarni vazirlikka yetib kelish muddatlarini qisqartirish;

pedagog xodimlar malakasini oshirishga doir yangilik va innovatsiyalarni ta’lim tashkilotlarida joriy etish sur’atlarini oshirish;

ta’lim tashkilotlari negizida malaka oshirish tadbirlarini tashkil etish samaradoriligini oshirish.

3-bob. Vertikal tizimning tarkibiy tuzilishi

6. Vertikal tizimi tarkibiga quyidagilar kiradi:

vazirlik;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari (keyingi o‘rinlarda - hududiy boshqarmalar);

tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlari;

A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti (keyingi o‘rinlarda - Institut);

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti (keyingi o‘rinlarda - Maktabgacha ta’lim instituti);

Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar pedagogik mahorat markazlari (keyingi o‘rinlarda - Hududiy pedagogik mahorat markazlar);

ta’lim tashkilotlari.

7. Vazirlik:

zamonaviy talablarga muvofiq malaka oshirish ta’limining takomillashtirib borilishini ta’minlaydi;

malaka oshirish muassasalari faoliyatini muvofiqlashtiradi, ularning o‘quv-metodik va moddiy-texnika bazasini takomillashtirish choralarini ko‘radi;

malaka oshirishning yillik reja ko‘rsatkichlarini tasdiqlaydi hamda ularning bajarilishini nazorat qiladi;

malaka oshirish jarayonlarini Davlat budjetidan moliyalashtirish choralarini ko‘radi;

malaka oshirish kurslarining davlat ta’lim talablarini, o‘quv rejasi va dasturlarini tasdiqlaydi.

8. Hududiy boshqarmalar:

vazirlikning vertikal tizimni tashkil etishga doir vazifalarini tegishli hududda bajarilishini ta’minlaydi;

pedagog xodimlarning malaka oshirishi uchun zarur sharoitlarni yaratadi;

pedagog kadrlarning belgilangan tartibda malaka oshirishga jalb qilish choralarini amalga oshiradi;

pedagog xodimlarning hudud, tuman va shaharlar miqyosidagi, shuningdek, ta'lim tashkilotlaridagi kasbiy (metodik) rivojlanish kunlari va kasbiy (metodik) rivojlanish soatlari tadbirlarini tashkil qiladi.

9. Institut:

maktabgacha va maktab ta'limi sohasida to‘plangan ilg‘or tajribalarni malaka oshirish tizimi orqali ta'lim tashkilotlariga keng tatbiq etadi;

pedagog xodimlarning malakasini oshirish tadbirlarining samaradorligini ta'minlaydi, malaka oshirishning an'anaviy, muqobil, dual va mustaqil shakllarini amaliyotga keng joriy etadi;

malaka oshirish kurslarining o‘quv reja va dasturlarini ishlab chiqadi hamda ularni zamon talablari va xorijiy ilg‘or tajribalar asosida takomillashtirish bo‘yicha Vazirlikka taklif kiritadi;

malaka oshirish kurslarining ta'lim mazmuniga xalqaro baholash dasturlari (PISA, TIMSS, PIRLS) bo‘yicha modullarni kiritib boradi;

elektron platformani yuritadi va uning faoliyatini takomillashtirib boradi.

10. Maktabgacha ta'lim instituti:

maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlari uchun uzluksiz kasbiy rivojlantirish kurslarini tashkil etadi;

maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish bo‘yicha elektron platformaga ma'lumotlarni kiritishni tashkil qiladi;

pedagog xodimlarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish bo‘yicha o‘quv rejalari va dasturlarini ishlab chiqadi;

maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining uzluksiz malakasini oshirish (“Metodik rivojlanish kuni” va “Metodik rivojlanish soati”) tadbirlarini tashkil qiladi va monitoringini olib boradi.

11. Hududiy pedagogik mahorat markazlari:

tegishli hududdagi pedagog xodimlar uchun malaka oshirish kurslarini tashkil etadi;

malaka oshirishning ilg‘or shakl va usullarini joriy etadi;

hududdagi ehtiyojdan kelib chiqqan holda alohida kurslarni tashkil etish uchun, o‘quv rejasi va o‘quv dasturlarini ishlab chiqadi hamda belgilangan tartibda tasdiqlash uchun Institutga taqdim etadi;

pedagog xodimlarning elektron portfolioga kiritilgan mustaqil malaka oshirish natijalarini baholaydi.

12. Tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlari:

elektron platformaga xodimlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar to‘g‘ri kiritilishini nazorat qiladi;

ta’lim tashkilotlarining navbatdagi kalendar yili uchun malaka oshirishning reja ko‘rsatkichlariga takliflarni yig‘adi, umumlashtiradi va hududiy boshqarmaga kiritadi;

pedagog xodimlarning tasdiqlangan reja ko‘rsatkichlari bo‘yicha malaka oshirish kurslariga yuborilishini nazorat qiladi;

pedagog xodimlarning tuman (shahar) miqyosidagi, shuningdek, ta’lim tashkilotlaridagi uzluksiz malaka oshirish tadbirlarini tashkil qiladi;

pedagog xodimlarning ishdan ajralmagan shakldagi malaka oshirish jarayonlari monitoringini olib boradi.

13. Ta’lim tashkilotlari:

pedagog xodimlarni tasdiqlangan reja bo‘yicha malaka oshirish kurslariga yuboradi;

pedagog xodimlarning malaka oshirishi haqidagi ma’lumotlarni elektron platformaga kiritadi;

pedagog xodimlarning ta’lim muassasasi negizida uzluksiz malakasini oshirish bo‘yicha turli tadbirlarni amalga oshiradi;

4-bob. Vertikal tizimda malaka oshirish kurslarini tashkil etish

14. Pedagog xodimlarning malakasini oshirish vazirlik tomonidan tasdiqlangan yillik reja va malaka oshirish kurslarining o‘quv dasturlari bo‘yicha malaka oshirish muassasalari tomonidan amalga oshiriladi.

15. Malaka oshirish kurslaridagi o‘quv jarayoni guruhlarning to‘ldirilishiga bog‘liq holda tinglovchilar soni 25 nafardan kam bo‘lmagan 30 nafardan ko‘p bo‘lmagan akademik guruhlarda tashkil etiladi.

Tinglovchilar kontingentini bir guruh me’yorida shakllantirib

bo‘lmaydigan alohida yo‘nalishlar bo‘yicha o‘quv jarayonini tashkil etishda, istisno tariqasida, Vazirlikning ruxsati bilan bir guruhdagi tinglovchilar soni kamida 15 nafar etib belgilanishi mumkin.

16. Pedagog xodim uning mehnat ta’tili yoki vaqtincha mehnatga qobiliyatsizligi davrida malaka oshirishga jalb qilinmaydi.

17. Xodimlarning har 5 yilda belgilangan davomiylikdagi malaka oshirish dasturlarini o‘zlashtirishi majburiy hisoblanadi.

18. Pedagog xodimlar uchun malaka oshirish kursining davomiyligi kamida 100 soat etib belgilanadi.

19. Har yili 15 oktabrgacha ta’lim tashkilotlarining direktori tomonidan navbatdagi kalendar yilida malaka oshiradigan pedagog xodimlar haqidagi ma’lumotlarni elektron platformaga kiritish orqali malaka oshirishga buyurtma shakllantiriladi. Bunda, pedagog xodimning avvalgi malaka oshirgan muddati, shuningdek, tashkilot xodimlarining har yili o‘rtacha 20 foizi malaka oshirishi lozimligi ko‘zda tutiladi.

20. Elektron platformada shakllangan buyurtmada xodimning familiyasi, ismi va otasining ismi, diplom bo‘yicha mutaxassisligi, ish joyi, lavozimi, dars beradigan fani, o‘qiydigan malaka oshirish kursi va kasbiy rivojlantirish ta’lim tashkiloti ko‘rsatiladi.

21. Institut tomonidan mazkur buyurtmalar asosida pedagog xodimlarning hududlar va malaka oshirish muassasalari bo‘yicha taqsimoti (keyingi o‘rinlarda — taqsimot) shakllantiriladi va 15 noyabrga qadar vazirlikka tasdiqlash uchun taqdim etiladi.

Mazkur taqsimot vazirlik tomonidan 5 dekabrga qadar tasdiqlanadi va Institut tomonidan elektron platformaga joylashtiriladi.

22. Malaka oshirish muassasalari taqsimot asosida malaka oshirish kurslarini tashkil etish bo‘yicha o‘zlarining rejalarini ishlab chiqadi va ta’lim tashkilotlariga yetkazilishini ta’minlaydi.

23. Ta’lim tashkilotlari Reyestrdagi taqsimot va malaka oshirish muassasalarining kurslarni tashkil etish bo‘yicha rejalariga binoan pedagog xodimlarining tegishli malaka oshirish muassasalariga o‘qishga belgilangan muddatda yetib borishlarini ta’minlaydi.

24. Malaka oshirishga yuborilgan pedagog xodim malaka

oshirish muassasasi rahbarining buyrug‘i bilan tinglovchilar safiga qabul qilinadi.

25. Malaka oshirish kurslarini tashkil qilish, ularni talab darajasida o‘tkazish, ta’lim samaradorligini ta’minlash hamda tinglovchilarning yashashi uchun shart-sharoitlar yaratish (kasbiy rivojlantirish ta’lim tashkilotida tinglovchilar turar joyi mavjud bo‘lsa) mas’uliyati tegishli malaka oshirish muassasasi rahbarining zimmasiga yuklatiladi.

26. Malaka oshirish kursi tinglovchisi kursning o‘quv rejasida nazarda tutilgan barcha oraliq nazoratlar va yakuniy attestatsiyada ijobiy natija ko‘rsatsa, kursning o‘quv dasturi to‘liq o‘zlashtirilgan hisoblanadi.

27. Malaka oshirish kursi dasturini to‘liq o‘zlashtirgan tinglovchilarga kursni tashkil qilgan malaka oshirish muassasasi tomonidan davlat namunasidagi elektron generatsiya qilingan va elektron raqamli imzo (QR-kod) bilan tasdiqlangan hujjat (sertifikat) beriladi.

28. Har bir pedagog xodim haqidagi malaka oshirish kursi boshlangan va tugallangan vaqt hamda kursni tamomlaganlik haqidagi hujjat (sertifikat) bo‘yicha ma’lumotlar malaka oshirish muassasasi tomonidan elektron platformaga kiritiladi.

Mazkur ma’lumotlar o‘z vaqtida, aniq va to‘liq kiritilishi uchun malaka oshirish muassasasi rahbari shaxsan mas’ul hisoblanadi.

5-bob. Vertikal tizimda uzluksiz malaka oshirish tadbirlarini tashkil etish

29. Har yili tashkil qilinadigan uzluksiz kasbiy rivojlantirish tadbirlari - pedagog xodimlarning malaka oshirish kurslari oralig‘idagi kasbiy rivojlanish jarayonlari uzluksizligini ta’minlash, ulardagi kasb mahorati va malaka darajasining doimiy o‘sishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish asosida ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya sifatini oshirishga yo‘naltirilgan.

30. Bog‘chalarda faoliyat yurituvchi pedagog xodimlarning uzluksiz kasbiy rivojlantirish tadbirlari malaka oshirish kurslari oralig‘ida har yili “Virtual kasbiy rivojlantirish” elektron dasturi orqali tashkil qilinadigan kasbiy rivojlantirish o‘quvlaridan iborat.

Bog‘chalarda faoliyat yurituvchi pedagog xodimlarning kasbiy rivojlantirish o‘quvlarida ishtirok etishi va o‘quvlar dasturini o‘zlashtirishlari majburiy hisoblanadi.

31. Umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tadbirlari malaka oshirish kurslari oralig‘ida har yili tashkil qilinadigan “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlaridan iborat.

Kasbiy rivojlanish kuni tadbirlarining maqsadi - haftaning belgilangan muayyan kunida o‘quv-seminar, trening, mahorat darslari va mustaqil ta’lim tadbirlari o‘tkazish orqali o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish, ijodiy ishlash va o‘z bilimini muntazam boyitib borish, zamonaviy o‘qitish metodikasi va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan unumli foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirishdan iborat.

Kasbiy rivojlanish soati tadbirlarining maqsadi - dars kuzatish, refleksiv amaliyot hamda umumiy o‘rta ta’lim maktabi negizida malaka oshirish tadbirlari o‘tkazish orqali kasbiy rivojlanish kunlarida tashkil etilgan o‘quvlarda o‘qituvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan yangi bilim va ko‘nikmalarni o‘zlari faoliyat ko‘rsatayotgan umumta’lim maktablarida qo‘llashlarini tahlil qilish, ularga zarur metodik yordam ko‘rsatish, kasbiy rivojlanish uchun tavsiyalar berishdan iborat.

32. “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlari o‘quv yili davomida haftaning belgilangan kunlarida, shuningdek, o‘quvchilarning ta’til kunlarida o‘tkaziladi.

O‘qituvchining har yili belgilangan davomiylikdagi “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlarida ishtirok etishi va tegishli o‘quv dasturlarini o‘zlashtirishi majburiy hisoblanadi.

33. “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlarini tashkil etish tartibi vazirlik tomonidan belgilanadi.

6-bob. Vertikal tizim faoliyatini raqamlashtirish

34. Pedagog xodimlarning uzluksiz malaka oshirishini ta’minlash uchun elektron platformadan foydalanilishi mumkin.

35. Elektron platforma barcha ta’lim tashkilotlarining pedagog xodimlari malakasini oshirishga doir ma’lumotlar o‘zida jamlab borilishini ta’minlaydi.

Elektron platformada ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlarining elektron portfoliosi shakllantiriladi.

36. Ta’limning dolzarb masalalariga oid qo‘shimcha (qisqa muddatli) malaka oshirish kurslari elektron platforma orqali

tashkil etilishi mumkin.

37. Malaka oshirish kurslari o‘quv rejasi va dasturlari tarkibiga kiruvchi har bir o‘quv modullarini muvaffaqiyatli o‘zlashtirgan va nazorat topshiriqlarini bajargan pedagog xodimga kursni muvaffaqiyatli tugatganligi haqida davlat namunasidagi elektron generatsiya qilingan va elektron raqamli imzo (QR-kod) bilan tasdiqlangan hujjat (sertifikat) shakllantiriladi.

38. Har bir o‘quv moduli yoki kursni muvaffaqiyatli o‘zlashtirganlik haqidagi ma’lumotlar xodimlarning elektron portfoliosida aks ettiriladi.

7-bob. Vertikal tizimda uzluksiz malaka oshirish ta’limining sifatini baholash va nazorat qilish

39. Pedagog xodimlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi sifati ular tayyorgarligining zarur va yetarli darajasi, ulardagi bilim va amaliy mahoratning mazkur xodimlarga qo‘yiladigan malaka talablariga muvofiqligi bilan belgilanadi.

40. Ta’lim tashkilotlarida faoliyat ko‘rsatadigan pedagog xodimlar malakasini oshirish sifatini nazorat qilish quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

vazirlik tomonidan tasdiqlangan nizom asosida qayta tayyorlash va malaka oshirish ta’lim muassasasi tomonidan amalga oshiriladigan ichki nazorat (kirish testi orqali dastlabki nazorat, o‘qitilayotgan fan modullari bo‘yicha oraliq nazorat va yakuniy attestatsiya);

vazirlik tomonidan attestatsiya va tezkor diagnostika shaklida amalga oshiriladigan tashqi nazorat.

41. Malaka oshirish muassasasining uzluksiz kasbiy rivojlantirish bo‘yicha faoliyati sifatini nazorat qilish vazirlik tomonidan amalga oshiriladi.

42. Ta’lim sifatini nazorat qilishda tegishli malaka oshirish muassasasida pedagog xodimlarni kasbiy rivojlantirish sifatini nazorat qilish hamda muntazam ravishda malaka oshirish dasturlari asosida ta’lim berishning samaradorligi baholanadi va dasturlarni takomillashtirish bo‘yicha choralar ko‘riladi.

8-bob. Yakunlovchi qoidalar

43. Ushbu Tartib talablari buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilikka muvofiq javob beradilar

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining ayrim buyruqlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtidorli yoshlar bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 30-sentabrdagi PQ-346-son va “Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 3-maydagi PQ-4306-son hamda Vazirlar Mahkamasining “Iqtidorli o‘quvchilar o‘rtasida fan olimpiadalarini o‘tkazish tizimini takomillashtirish hamda xorijiy tillarni o‘qitish bo‘yicha eng yaxshi maktabni aniqlash tizimini joriy etish to‘g‘risida” 2021-yil 9-sentabrdagi 562-son qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman**:

1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining ayrim buyruqlariga ilovaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin.

2. Fan olimpiadalarini o‘tkazish va iqtidorli o‘quvchilarni saralash boshqarmasi (U.Raxmonov), Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi (A.Ubbiyev)ga:

xalqaro fan olimpiadalarida g‘olib bo‘lgan o‘quvchilar va ularning o‘qituvchilarini tantanali taqdirlash tadbiri tashkil etilishi va yuqori saviyada o‘tkazilishini ta’minlash;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari bilan birgalikda, asosiy olimpiadaning III (viloyat) bosqichini hamda xalqaro fan olimpiadalarida ishtirok etuvchi O‘zbekiston terma jamoalariga nomzodlarni saralashning birinchi bosqichini o‘tkazish muddatlariga kiritilgan o‘zgartirishlar haqida maktab, tuman jamoalarini xabardor qilish choralarini ko‘rish;

ushbu buyruq ijrosi yuzasidan rahbariyatga axborot kiritib borish vazifalari yuklatilsin.

3. Devonxona (H.Rahimbayeva) ushbu buyruqni bir kun muddatda vazirlikning tegishli tarkibiy bo‘linmalari hamda hududiy maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalariga yetkazilishini ta’minlasin.

4. Mazkur buyruqning bajarilishini nazorat qilishni vazirning birinchi o‘rinbosari Sh.Karimov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2024-yil 4-noyabr,
355-son

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta’limi vazirining
2024-yil 4-noyabrdagi
355-son buyrug‘iga
ILOVA

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining ayrim buyruqlariga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar

1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining “2024-2025-o‘quv yilida umumta’lim fanlari bo‘yicha asosiy olimpiadaning ikkinchi - tuman (shahar) va uchinchi - hududiy bosqichlari hamda xalqaro olimpiadalarda ishtirok etadigan O‘zbekiston terma jamoasiga nomzodlarni saralashning birinchi bosqichini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida” 2024-yil 11-oktabrdagi 331-sonli buyrug‘iga:

a) 1b-ilovaning matni quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Umumta’lim fanlari bo‘yicha asosiy olimpiadaning uchinchi - hududiy bosqichini hamda nufuzli xalqaro olimpiadalarda ishtirok etadigan O‘zbekiston terma jamoasiga nomzodlarni saralashning birinchi bosqichini o‘tkazish JADVALI

I GURUH FANLAR *(matematika, fizika, kimyo, biologiya, informatika)*								
Sinf	**25-noyabr dushanba**	**26-noyabr seshanba**	**27-noyabr chorshanba**	**28-noyabr payshanba**	**29-noyabr juma**	**30-noyabr shanba**		**1-dekabr yakshanba**
9-sinf	Biologiya - yozma ish **soat 9:00 - 12:00**	Biologiya - test **soat 9:00 - 10:30**	Informatika - dasturlash **soat 9:00 - 13:00**		Matematika, fizika, kimyo - yozma ish **soat 9:00 - 12:00**	Matematika, fizika, kimyo - test **soat 9:00 - 10:30**	**Informatika fanidan xalqaro olimpiadalarga nomzodlarni saralashning birinchi bosqichi**	**Matematika, fizika, kimyo va biologiya fanlaridan xalqaro olimpiadalarga nomzodlarni saralashning birinchi bosqichini (soat 9:00 - 13:00)**
10-sinf	Informatika -dasturlash **soat 9:00 - 13:00**		Matematika, fizika, kimyo - yozma ish **soat 9:00 - 12:00**	Matematika, fizika, kimyo - test **soat 9:00 - 10:30**	Biologiya - yozma ish **soat 9:00 - 12:00**	Biologiya - test **soat 9:00 - 10:30**		
11-sinf	Matematika, fizika, kimyo - yozma ish **soat 9:00 - 12:00**	Matematika, fizika, kimyo - test **soat 9:00 - 10:30** Informatika - dasturlash **soat 9:00 - 13:00**	Biologiya - yozma ish **soat 9:00 - 12:00**	Biologiya - test **soat 9:00 - 10:30**				

II GURUH FANLAR *(ona tili va adabiyot, o'zbek tili, qoraqalpoq tili va adabiyoti, rus tili va adabiyoti, ingliz tili, nemis tili, fransuz tili, tojik tili, qozoq tili, tarix, davlat va huquq asoslari, geografiya)*									
Sinf	**2-dekabr**			**3-dekabr**			**4-dekabr**		
	Fan	**Nazorat turi**	**Ajratilgan vaqt**	**Fan**	**Nazorat turi**	**Ajratilgan vaqt**	**Fan**	**Nazorat turi**	**Ajratilgan vaqt**
9-sinf	Ona tili va adabiyot,	Esse	60 daqiqa						
		Test	60 daqiqa						
	O'zbek tili (davlat tili)	Esse	60 daqiqa						
		Test	60 daqiqa						
	Qoraqalpoq tili va adabiyoti	Esse	60 daqiqa						
		Test	60 daqiqa						
	Rus tili va adabiyoti	Esse	60 daqiqa						
		Test	60 daqiqa						
	Tojik tili va adabiyoti	Esse	60 daqiqa						
		Test	60 daqiqa						
	Qozoq tili va adabiyoti	Esse	60 daqiqa						
		Test	60 daqiqa						
	Ingliz tili, nemis tili, fransuz tili	Tinglab, o'qib tushunish	120 daqiqa						
		Test	60 daqiqa						
	Tarix	Test	80 daqiqa						
	Davlat va huquq asoslari	Test	80 daqiqa						
	Geografiya	Test	80 daqiqa						

10-sinf	Test O‘zbek tili (davlat tili) Esse Test Qoraqalpoq tili va adabiyoti Esse Test Rus tili va adabiyoti Esse Test Tojik tili va adabiyoti Esse Test Qozoq tili va adabiyoti Esse Test Ingliz tili, nemis tili, fransuz tili Tinglab, o‘qib tushunish Test	Ona tili va adabiyot, 60 daqiqa	Esse	60 daqiqa			
		60 daqiqa					
		60 daqiqa					
		60 daqiqa					
		60 daqiqa					
		60 daqiqa					
		120 daqiqa					
		60 daqiqa					
		Tarix	Test	80 daqiqa			
		Davlat va huquq asoslari	Test	80 daqiqa			
		Geografiya	Test	80 daqiqa			

11-sinf					Ona tili va adabiyot,	Esse	60 daqiqa
						Test	60 daqiqa
					O‘zbek tili (davlat tili)	Esse	60 daqiqa
						Test	60 daqiqa
					Qoraqalpoq tili va adabiyoti	Esse	60 daqiqa
						Test	60 daqiqa
					Rus tili va adabiyoti	Esse	60 daqiqa
						Test	60 daqiqa
					Tojik tili va adabiyoti	Esse	60 daqiqa
						Test	60 daqiqa
					Qozoq tili va adabiyoti	Esse	60 daqiqa
						Test	60 daqiqa
					Ingliz tili, nemis tili, fransuz tili	Tinglab, o‘qib tushunish	120 daqiqa
						Test	60 daqiqa
					Tarix	Test	80 daqiqa
					Davlat va huquq asoslari	Test	80 daqiqa
					Geografiya	Test	80 daqiqa

Izoh: Maxsus maktablar o‘quvchilari uchun asosiy olimpiadaning uchinchi - hududiy bosqichi o‘quvyilining III choragi davrida o‘tkaziladi.

Asosiy olimpiadaning uchinchi - hududiy bosqichi topshiriq turlari, soni va topshiriqlarni bajarish uchun ajratilgan vaqt

T/r	Fan	Topshiriq turi	Ball		Ajratilgan vaqt
1.	**Matematika**	**1.Yozma ish - 5 ta masala 2. Test - 30 ta (20 ta yopiq, 10 ta ochiq test)**	**50 ball**	**100 ball**	**180 daqiqa**
2.	**Kimyo**				
3.	**Biologiya**		**50 ball**		**90 daqiqa**
4.	**Fizika**				
5.	*Informatika*	*Dasturlash - 5 ta masala(topshiriq)*	*50 ball*		*180 daqiqa*
6.	**Tarix**	**Test - 40 ta**	**100 ball**		**80 daqiqa**
7.	**Davlat va huquq asoslari**				
8.	**Geografiya**				
9.	*Ona tili va adabiyot*	*Esse (berilgan mavzu bo'yicha) Test - 30 ta*	*100 ball*		*120 daqiqa*
10.	*O'zbek tili*				
11.	*Rus tili va adabiyoti*				
12.	*Qozoq tili*				
13.	*Tojik tili*				
14.	*Qoraqalpoq tili va adabiyoti*				
15.	**Ingliz tili**	**Tinglab tushunish, o'qish Leksik-grammatik test - 30 ta (20 ta yopiq, 10 ta ochiq)**	**60 ball**	**100 ball**	**180 daqiqa**

b) 2b-ilovada "Asosiy olimpiadaning uchinchi - hududiy bosqichini o'tkazish tartibi va baholash mezonlari bo'yicha YO'RIQNOMA"ning 1-bandidagi "4-9-noyabr" va "3-5-dekabr" so'lari "25-30-noyabr"va "2-4-dekabr" so'zlari bilan almashtirilsin;

c) 4-ilovada "Xalqaro olimpiadalarda ishtirok etadigan O'zbekiston terma jamoasiga nomzodlarni saralashning birinchi bosqichini o'tkazish tartibi va baholash mezonlari bo'yicha YO'RIQNOMA"ning 1-bandidagi "9-10-noyabr" so'zlari "30-noyabr - 1-dekabr" so'zlari bilan almashtirilsin;

d) 5-ilovaning matni quyidagi tahrirda bayon etilsin:

Asosiy olimpiadaning uchinchi - hududiy bosqichi o‘tkazilishini nazorat qilish bo‘yicha hududlarga yuboriladigan mas’ul xodimlar RO‘YXATI

T/r	Viloyat (shahar)	Mas’ullarning F.I.Sh.	Lavozimi	Xizmat safari muddatlari
1.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	Axmedov Fayzulla Xodjiyevich	Vazirlik yetakchi mutaxassisi	23-noyabr-6-dekabr
2.	Andijon viloyati	Ubaydullayev Shohruh Xumoyun o‘g‘li	Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi mutaxassisi	23-noyabr - 6-dekabr
3.	Buxoro viloyati	Raxmonov Umid Olimovich	Vazirlik boshqarma boshlig‘i	23-noyabr - 6-dekabr
		G‘aniyeva Zarina Itolmasovna	Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi mutaxassisi	
4.	Jizzax viloyati	Hakimov Nurhayot Zokirovich	Respublika ta’lim markazi Ijtimoiy fanlar bo‘limi boshlig‘i	23-noyabr-6-dekabr
5.	Qashqadaryo viloyati	Kurbanov Abror Xayrullo o‘g‘li	Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi mutaxassisi	23-noyabr - 6-dekabr
6.	Navoiy viloyati	Raxmonov Umid Olimovich	Vazirlik boshqarma boshlig‘i	23-noyabr - 6-dekabr
		Abdullajonov Arabboy Ibroxim o‘g‘li	Respublika ta’lim markazi Informatika va AT fani metodisti	
7.	Namangan viloyati	Fozilov Jamoliddin Kamoliddinovich	Vazirlik bosh mutaxassisi	23-noyabr-6 -dekabr
8.	Samarqand viloyati	Tuxtayev Davron Dilmurod o‘g‘li	Vazirlik bo‘lim boshlig‘i	23-noyabr - 6-dekabr
		Omonov Abror Qurbonovich	Respublika ta’lim markazi Tarbiya fani metodisti	
9.	Sirdaryo viloyati	Karimov Otabek Shokirovich	Vazirlik yetakchi mutaxassisi	23-noyabr-6-dekabr
		Soatova Guljahon Muhammatovna	Respublika ta’lim markazi Filologiya bo‘limi metodisti	1-6-dekabr
10.	Surxondaryo viloyati	Ishmuradov Shovxiddin Ilxomovich	Vazirlik bosh mutaxassisi	23-noyabr - 6-dekabr

11.	Toshkent viloyati	Narziyev A‘zam Azimovich	Vazirlik yetakchi mutaxassisi	23-noyabr-6-dekabr
12.	Farg‘ona viloyati	Raxmatov Jamshid Akbarovich	Respublika ta’lim markazi Fizika fani metodisti	23-noyabr-6-dekabr
13.	Xorazm viloyati	Ibrogimov Mirzoxid Isroilovich	Vazirlik bosh mutaxassisi	23-noyabr-6-dekabr
14.	Toshkent shahar	Raxmonov Umid Olimovich	Vazirlik boshqarma boshlig‘i	23-noyabr - 6-dekabr
		Muxamadov Abdulla To‘lqin o‘g‘li	Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi mutaxassisi	

2. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining “2023-2024-o‘quv yilida o‘tkazilgan mintaqaviy va nufuzli xalqaro olimpiadalar g‘oliblari va ularning o‘qituvchilarini rag‘batlantirishni tashkil etish to‘g‘risida” 2024-yil 14-oktabrdagi 333-sonli buyrug‘ida:

a) 2-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“2. Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tasarrufidagi Abu Ali ibn Sino nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabida xalqaro fan olimpiadalarida g‘olib bo‘lgan o‘quvchilar va ularning o‘qituvchilarini tantanali taqdirlash tadbiri 2024-yil 8-noyabr kuni tashkil etilsin.

Belgilansinki, xalqaro fan olimpiadalari g‘oliblarini taqdirlash marosimi tadbiri uchun ixtisososlashtirilgan maktabning laboratoriya binosini yangi zamonaviy dizayn asosida rasmiylashtirish, kerakli anjomlarni xarid qilish hamda tadbir o‘tkazish uchun zaruriy boshqa xarajatlarni Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi huzuridagi Iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.”

b) 6-ilova matni quyidagi tahrirda bayon etilsin.

2023-2024-o‘quv yilida o‘tkazilgan mintaqaviy va nufuzli xalqaro olimpiadalarda g‘olib bo‘lgan o‘quvchilarni taqdirlash bo‘yicha SARF-XARAJATLAR

T/r	Xarajatlar nomi	O‘lchov birligi	Soni	Narxi	Summasi
I. Nufuzli xalqaro olimpiadalar					
G‘olib o‘quvchilarm taqdirlash			**11**		**1 087 500 000**
1	Oltin medal olgani uchun mukofot puli	nafar	1	187 500 000	187 500 000
2	Kumush medal olgani uchun mukofot puli	nafar	4	112 500 000	450 000 000
3	Bronza medal olgani uchun mukofot puli	nafar	6	75 000 000	450 000 000
II. Xalqaro olimpiadalar					
G‘olib o‘quvchilarm taqdirlash			**2**		**75 000 000**
1	Oltin medal olgani uchun mukofot puli	nafar	1	56 250 000	56 250 000
2	Kumush medal olgani uchun mukofot puli	nafar	0	37 500 000	0
3	Bronza medal olgani uchun mukofot puli	nafar	1	18 750 000	18 750 000
III. Mintaqaviy xalqaro olimpiadalar					
G‘olib o‘quvchilarni taqdirlash			**78**		**210 750 000**
1	Oltin medal olgani uchun mukofot puli	nafar	9	4 500 000	40 500 000
2	Kumush medal olgani uchun mukofot puli	nafar	20	3 000 000	60 000 000
3	Bronza medal olgani uchun mukofot puli	nafar	49	2 250 000	110 250 000
IV. Taqdirlash tadbirini o‘tkazish					**890 418 000**
	Taqdirlash tadbirini o‘tkazish xarajatlari				**190 920 000**
1	Vaucherlarni tayyorlash (40x80 sm)	dona	22	750 000	16 500 000
2	Vaucherlarni tayyorlash (30x60 sm)	dona	82	650 000	53 300 000
3	Sertifikatlarni tayyorlash va ramkalar	dona	78	45 000	3 510 000
4	Guldasta	dona	242	280 000	67 760 000
5	Suv (0,5l)	dona	500	2 500	1 250 000
6	Fotobumaga (A3-format) (50 varaq)	pachka	5	70 000	350 000

7	Fotobumaga (A4-format) (50 varaq)	pachka	5	50 000	250 000
8	Nufuzli xalqaro olimpiadalarda ishtriok etgan terma jamoa rahbarlariga planshet	dona	4	12 000 000	48 000 000
9	**Taqdirlash tadbirini o‘tkazish xarajatlari**				**699 498 000**
9.1.	*LED ekran ijarasi 1 kun (10x6 m2, 3x6 m2, 2- dona)*	*kv.m*	*96*	*450 000*	*43 200 000*
9.2.	*LED ekran uchun metall ramka ijarasi (layerbi)*	*kv.m*	*96*	*405 000*	*38 880 000*
9.3.	*LED ekran metall ramkasi uchun og‘irlik qurilmalari (100 kg)*	*dona*	*8*	*560 000*	*4 480 000*
9.4.	*Video muhandislik xizmati*	*xizmat*	*1*	*5 040 000*	*5 040 000*
9.5.	*Sahna uchun gilamli podiumini ijaraga olish (o‘rnatish va demontaj qilish, 10*5 m2)*	*kv.m*	*50*	*320 000*	*16 000 000*
9.6.	*Yoritish moslamasini ijaraga olish, o‘rnatish va demontaj qilish (BWS Wash FT1200)*	*dona*	*24*	*1 240 000*	*29 760 000*
9.7.	*Yoritish moslamalari uchun alyuminiy troslarni ijaraga olish (totem 3 metr).*	*dona*	*10*	*800 800*	*8 008 000*
9.8.	*Yoritish muhandisi xizmati*	*xizmat*	*1*	*1 344 000*	*1 344 000*
9.9.	*Ovoz muhandisi xizmati*	*xizmat*	*1*	*1 680 000*	*1 680 000*
9.10.	*Tribuna ijarasi*	*xizmat*	*1*	*1 680 000*	*1 680 000*
9.11.	*Sinxron tarjimon xizmati (O‘zbek tilidan- Ingliz tiliga)*	*xizmat*	*2*	*7 450 000*	*14 900 000*
9.12.	*Tadbir o‘tkaziladigan joy uchun ko‘rgazma stendini tayyorlash xizmati*	*xizmat*	*1*	*95 000 000*	*95 000 000*
9.13.	*Baadiy qism uchun xonanda, aktyor, aktrisa, grim ustasi va kiyimlar ijarasi*	*xizmat*	*1*	*35 000 000*	*35 000 000*
9.14.	*Fan olimpiadalari uchun musiqiy gimn yaratish (video rolikli)*	*xizmat*	*1*	*15 000 000*	*15 000 000*
9.15.	*Pul mukofotlarni bezatish uchun org steklo idishlar*	*dona*	*20*	*1 000 000*	*20 000 000*
9.16.	*Ferma (metall alumindan to‘qilgan konstruksiya)*	*xizmat*	*1*	*20 500 000*	*20 500 000*
9.17.	*Osma kutargich metaal trosli konstruksiya moslama ijarasi*	*dona*	*22*	*1 255 000*	*27 610 000*
9.18.	*Kub ushlab turgich moslama ijarasi (tirgak metalldan)*	*dona*	*4*	*1 000 000*	*4 000 000*
9.19.	*Tall-konstruksiyani bog‘lovchi metall trosli moslama ijarasi*	*dona*	*30*	*1 175 000*	*35 250 000*

9.20.	*Parda ijarasi*	*kv.m*	*700*	*186 000*	*130 200 000*
9.21.	*Stul ijarasi*	*dona*	*250*	*55 000*	*13 750 000*
9.22.	*Gilam ijarasi*	*kv.m*	*200*	*100 000*	*20 000 000*
9.23.	*Saxnani tirik gullar bilan bezatish xizmati (10 metr)*	*xizmat*	*1*	*15 000 000*	*15 000 000*
9.24.	*Ovoz uskunalari ijarasi 1 kun; (mikrofonlar, ovozli signal konvertori, ovoz taqsimlagich va boshqa qurilmalar)*	*xizmat*	*1*	*31 000 000*	*31 000 000*
9.25.	*Fotozona o‘rnatish (8*3)*	*kv.m*	*24*	*184 000*	*4 416 000*
9.26.	*Roll-up (80*120 sm)*	*dona*	*8*	*950 000*	*7 600 000*
9.27.	*Banner (keng formatda karkas bilan pechat qilish va o‘rnatib berish xizmati)*	*kv.m*	*260*	*220 000*	*57 200 000*
9.28.	*Tadbir boshlovchisi (o‘zbek va rus tillarida)*	*xizmat*	*1*	*3 000 000*	*3 000 000*
Jami:*					**2 263 668 000**

**Nufuzli xalqaro olimpiadalaryakunlariga ko‘ra g‘oliblar soni va mukofot uchun ajratilgan mablag‘lar miqdori o‘zgarishi mumkin.*

Mintaqaviy, xalqaro va nufuzli olimpiadalar g‘oliblari bo’lgan o‘quvchilarga beriladigan bir martalik pul mukofotlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-avgustdagi “Ish haqi, pensiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to‘g‘risida”gi PF-108-son Farmonida belgilangan bazaviy hisoblash miqdoridan kelib chiqqan holda hisoblangan.”

Fan olimpiadalarini o‘tkazish va iqtidorli o‘quvchilarni saralash boshqarmasi boshlig‘i **U.Raxmonov**

Davlat xaridlarini tashkil etish bo‘linii boshlig‘i **J.Mannonov**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim dasturlari uzviyligini ta’minlash hamda maktabgacha ta’lim tashkilotlariga sifatli metodik xizmat ko‘rsatishni tashkil etish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 30-sentabrdagi PF-152-son Farmonida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash, maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim dasturlari uzviyligini ta’minlash hamda maktabgacha ta’lim tashkilotlariga sifatli metodik xizmat ko‘rsatishni tashkil etish maqsadida **buyuraman:**

1. Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim dasturlarining uzviyligini ta’minlash hamda tarbiyalanuvchilarga korrupsiyaga qarshi halollik vaksinasini singdirishga qaratilgan dasturlar, tavsiyalar, metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish bo‘yicha doimiy ishlovchi Respublika ishchi guruhi tarkibi (keyingi o‘rinlarda - Respublika ishchi guruh) ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Respublika ishchi guruhi (Sh.Karimov)ning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilansin:

a) maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim dasturlarining uzviyligini ta’minlash, o‘quv-metodik qo‘llanmalar va didaktik vositalarni takomillashtirish hamda yangi o‘quv-metodik qo‘llanmalar va didaktik vositalarni yaratish yo‘nalishi bo‘yicha:

maktabga tayyorlov guruhlari dasturi va boshlang‘ich ta’limning o‘quv dasturlari uzviyligini ta’minlash maqsadida xalqaro tajribalar asosida qayta ko‘rib chiqish;

“Ilk qadam” davlat o‘quv dasturidagi bolalar faoliyati turlari mazmuni bo‘yicha XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan o‘quv-metodik qo‘llanmalar majmualarini yaratish;

maktabgacha ta’limning davlat o‘quv dasturi asosida tarbiyalanuvchilarda tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirishning zamonaviy usullarini qo‘llagan holda bolalar yoshiga mos tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi kontentlar yaratish;

bolaning mustaqilligi, erkinligi, uning tabiiy, ruhiy, jismoniy va ijtimoiy rivojlanish prinsiplariga asoslangan didaktik materiallar

namunalarini ishlab chiqish, bunda:

maktabgacha ta'lim tashkilotlari kichik va o'rta yosh (3-5 yosh) guruhlari bolalarida biologik, kognitiv, psixomotor, ijtimoiy va ma'naviy jihatlarini pedagogik va ijtimoiylashuv orqali rivojlantirish;

katta yoshdagi va maktabga tayyorlov guruhlarida (6-7 yosh) esa bolalarga aqliy tarbiya berish bilan birga ularni irodaviy-hissiy jihatdan ham maktab ta'limiga tayyorlash kompetensiyalarini shakllantirishga ustuvorlik berish;

b) erta yoshdan boshlab maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilariga korrupsiyaga qarshi halollik vaksinasini singdirishga qaratilgan dasturlar, tavsiyalar, metodik qo'llanmalar ishlab chiqish yo'nalishi bo'yicha:

maktabgacha ta'lim tashkilotlarida korrupsiyaga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish, yosh avlod ongiga halollik qadriyatlarini singdirishga qaratilgan o'quv dasturlar va tavsiyalar ishlab chiqish;

muntazam ravishda ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari uchun maxsus dasturlar va kontentning yangilab borilishini ta'minlash;

mavzuga oid sifatli multiplikatsion film, videolavha va audiomateriallarni yaratish bo'yicha takliflar berish.

3. Quyidagilar:

Maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish departamenti (Sh.Muxamedov) Respublika ishchi guruhi faoliyatini samarali tashkil etish va muvofiqlashtirilishiga;

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti (N.Abdunazarova) ishlab chiqilgan o'quv -metodik qo'llanma, dastur va kontentlarni ilmiy jihatdan ko'rib chiqishga;

Respublika ta'lim markazi (Sh.Xudaykulov) ishlab chiqilgan o'quv-metodik qo'llanma, dastur va kontentlarni ekspertizadan o'tkazish, ularni ta'lim tizimida qo'llash bo'yicha xulosa berishga mas'ul etib belgilansin.

4. Vazirlik tasarrufidagi respublika tashkilotlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri, Toshkent shahar hamda viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari Respublika ishchi guruhi to'laqonli faoliyat ko'rsatishi uchun uning a'zolariga zarur sharoitlarni yaratsin.

5. Respublika ishchi guruh (Sh.Karimov) Respublika ishchi guruhi a'zolarini moddiy va ma'naviy rag'batlantirish yuzasidan takliflarni vazirlik rahbariyatiga kiritib borish choralarini ko'rsin.

6. Devonxona (H.Raximbayeva) mazkur buyruqni bir kun muddatda tegishli tarkibiy bo'linmalar va tasarrufdagi respublika tashkilotlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar hamda viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalariga yetkazilishini ta'minlasin.

7. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o'rinbosari Sh.Karimov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir **X.Umarova**

Toshkent sh.,
2024-yil 8-noyabr,
360-son

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2024-yil 8-noyabrdagi
360-sonli buyrug‘iga ilova

Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim dasturlarining uzviyligini ta’minlash hamda tarbiyalanuvchilarga korrupsiyaga qarshi halollik vaksinasini singdirishga qaratilgan dasturlar, tavsiyalar, metodik-qo‘llanmalar ishlab chiqish bo‘yicha doimiy ishlovchi Respublika ishchi guruhi TARKIBI

T/r F.I.Sh. Lavozimi

1. Sh.A.Karimov - Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining birinchi o‘rinbosari, *Respublika ishchi guruh rahbari*
2. Sh.N.Muxamedov - Maktabgacha ta’lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish departamenti direktori, *a’zo*
3. L.A.Berdiyeva - Maktabgacha ta’lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish departamenti direktori o‘rinbosari, *a’zo*
4. D.A.Norboyeva - O‘quv jarayonini metodik jihatdan ta’minlash va darsliklar boshqarmasi boshlig‘i, *a’zo*
5. G.M.Parpiyeva - Maktabgacha ta’lim tashkilotlariga metodik xizmat ko‘rsatish va ta’lim sifatini ta’minlash bo‘limi boshlig‘i, *a’zo*
6. N.M.Vasikova - Maktabgacha ta’lim tashkilotlariga metodik xizmat ko‘rsatish va ta’lim sifatini ta’minlash bo‘limi yetakchi mutaxassisi, *a’zo*
7. Sh.U.Xudaykulov - Respublika ta’lim markazi direktori, a’zo
8. G.O.Tagayeva - Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi yetakchi mutaxassisi, *a’zo*
9. V.N.Kim - “Axborot va pedagogika texnologiyalari innovatsion markazi” MCHJ direktori, *a’zo*
10. X.A.Yusupov - Respublika ta’lim markazi Aniq fanlar bo‘limi boshlig‘i, *a’zo*
11. M.T.Xojiyeva - Respublika ta’lim markazi Tabiiy fanlar bo‘limi boshlig‘i, *a’zo*
12. N.Sh.Abdullayeva - Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va

mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti o‘quv ishlari bo‘yicha prorektori, *a’zo*

13. B.Xaydarov - A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti mutaxassisi, *a’zo*

14. I.V.Grosheva - Toshkent shahridagi Puchon universiteti kafedra mudiri, *a’zo*

15. D.M.Maxmudova - Toshkent shahridagi Puchon universiteti Yoshlar siyosati boshqarmasi boshlig‘i, *a’zo*

16. S.V.Pak - Toshkent shahridagi Puchon universiteti Bolalar markazi direktori, *a’zo*

17. G.E.Djanpeysova - A.I.Gersen nomidagi Rossiya davlat pedagogika universitetining Toshkent shahridagi filiali Maktabgacha ta’lim kafedra mudiri, *a’zo*

18. M.E.Rustamova - Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti katta o‘qituvchisi, *a’zo*

19. M.Z.Fayzullayeva - Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti katta o‘qituvchisi, *a’zo*

20. Sh.X.Xamdamova - Toshkent shahar Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari, *a’zo*

21. S.A.Rahmonberdiyev - Maktabgacha ta’lim tashkilotlariga metodik xizmat ko‘rsatish va ta’lim sifatini ta’minlash bo‘limi bosh mutaxassisi, *kotib*

Izoh: *Respublika ishchi guruhi tarkibiga zarurat bo‘lganda tizim tashkilotlari, nodavlat ta’lim tashkilotlari hamda xorijiy mutaxassislar jalb etilishi mumkin.*

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘quvchi-yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 15-noyabrdagi PQ-393-son qarori ijrosi haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘quvchi-yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 15-noyabrdagi PQ-393-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-noyabrdagi PQ-393-son qarori (keyingi o‘rinlarda - qaror) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qaror bilan:

2025-yil 1-iyundan umumiy o‘rta (Prezident, ijod, ixtisoslashgan ta’lim muassasalari) ta’lim tashkilotlarida (keyingi o‘rinlarda - ta’lim tashkilotlari) vatanparvarlik ruhida yoshlarni tayyorlash bo‘yicha direktor o‘rinbosari - harbiy chaqiriqqacha tayyorgarlik (keyingi o‘rinlarda -ChQBT) rahbari lavozimi tugatilib, shtat birliklari Mudofaa vazirligiga o‘tkazilganligi va mazkur shtat birliklari hisobidan ChQBT rahbari lavozimi joriy etilganligi, bundan buyon ushbu lavozimlarga harbiy ta’lim fakultetlari, Qurolli Kuchlarning rezevri (zaxira)dagi oliy ma‘lumotga ega bo‘lgan oddiy askar, serjant, shuningdek, ofitserlar tarkibiga mansub kontrakt bo‘yicha xizmatchilar qabul qilish amaliyoti joriy etilayotganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining (keyin o‘rinlarda-vazirlik) o‘quvchilarda Vatan himoyachisi bo‘lishga mehr va havas uyg‘otish bo‘yicha chora -tadbirlar dasturi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi (I.Sharipov), Moliya -iqtisod departamenti (I.Siradjev), Ta’lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni muvofiqlashtirish boshqarmasi (A.Kamalov) ikki

hafta muddatda vazirlik shtat birliklari doirasida markaziy apparat tarkibida Vatanparvarlik va chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlikni muvofiqlashtirish bo‘limini tashkil etish choralarini ko‘rsin.

5. O‘quv jarayonini metodik jihatdan ta’minlash va darsliklar boshqarmasi (D.Norboyeva), Respublika ta’lim markazi (Sh. Xudaykulov)ga Mudofaa vazirligi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan birgalikda:

2025-2026-o‘quv yilidan boshlab respublikada “Vatan taqdiriga daxldorlik tuyg‘usi, faol hayotiy pozitsiya” tamoyiliga asosan yangilangan ChQBT fanining o‘quv dasturi va darsliklarini yaratish;

ta’lim tashkilotlarida ChQBT fani haftasiga ikki soatdan o‘qitilishini belgilash, bunda tayanch o‘quv rejada 10-11-sinflarga haftasiga bir soatdan qo‘shimcha yuklama kiritish vazifalari yuklatilsin.

6. Maktabdan tashqari ta’limni tashkil etish bo‘limi (I.Xoldarova):

a) 2025-2026-o‘quv yilidan boshlab “Jasorat maktablari”da sport turlari bo‘yicha “Barkamol avlod” bolalar maktablarining tarmoq to‘garaklari faoliyatini yo‘lga qo‘ysin;

b) ta’lim tashkilotlarida “Turon” maktab teatr tanlovlarini muntazam ravishda o‘tkazib borsin;

d) ikki oy muddatda:

Mudofaa vazirligi bilan birgalikda o‘quvchilar o‘rtasida kibersport, dron va robototexnika, kelajak o‘yinlari bo‘yicha alohida tanlovlar tashkil etish yuzasidan qo‘shma qaror loyihasini;

o‘quvchilarning jismoniy tayyorgarligini bosqichma-bosqich kuchaytirib borish va ularning yoshidan kelib chiqqan holda dastlabki normativlar topshirish tizimini ishlab chiqish choralarini ko‘rsin.

7. Ta’lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni muvofiqlashtirish boshqarmasi (A.Kamalov)ga Mudofaa vazirligi bilan birgalikda 2025-2026-o‘quv yilidan boshlab:

ta’lim tashkilotlarida yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, harbiy kasbga yo‘naltirish ishlarini olib borish;

“Jasorat maktablari” o‘quvchilarini o‘quv yili davomida ikki marta harbiy poligonlarda, har chorakda bir marta harbiy

qismlarda amaliy mashg‘ulotlar olib borish;

o‘quvchi-yoshlarni harbiy ta’lim muassasalariga saralash ishlarini tashkil etish;

“Vatan tayanchi” otryadi faoliyatini boshqarish hamda harbiy qism va poligonlarda amaliy mashg‘ulot o‘tkazish;

harbiylar hayotiga oid vatanparvarlik g‘oyasidagi qo‘llanmalar, film, ijtimoiy rolik, badiiy asar, turkum ko‘rsatuvlar yaratish;

o‘quvchi-yoshlarni o‘rtasida harbiy-sport musobaqalari va intellektual viktorinalar tashkil etish yuzasidan qabul qilinadigan qo‘shma qarorga takliflar tayyorlash hamda Yoshlar ishlari agentligiga kiritish vazifalari yuklatilsin;

8. Ta’lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni muvofiqlashtirish boshqarmasi (A.Kamalov) ikki oy muddatda Mudofaa vazirligi bilan ta’lim tashkilotlarida harbiy vatanparvarlik tarbiyasini to‘rt bosqichda amalga oshirishga qaratilgan konsepsiyani ishlab chiqisin.

9. Pedagog kadrlarni tayyorlash va kasbiy rivojlantirish boshqarmasi (M.Yuldashev), Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti (A.Ismailov) Mudofaa vazirligi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Kambag‘allikm qisqartirish va bandlik vazirligi bilan birgalikda uch oy muddatda ChQBT rahbarlarini Toshkent davlat pedagogika universiteti, Farg‘ona davlat universiteti va Buxoro davlat pedagogika instituti harbiy ta’lim fakultetlarida qayta tayyorlash, malakasini oshirish yuzasidan o‘quv dastur va reja ishlab chiqishda ishtirok etsin.

Bunda, malaka oshirish davomida ChQBT rahbarlarini o‘quv-mashq harbiy yig‘inlar harbiy poligonlarida, pedagogik ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha mashg‘ulotlar Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutida o‘tkazilishi inobatga olinsin.

10. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, viloyatlar hamda Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlari:

a) 2025-yil 1-iyundan ta’lim tashkilotlaridagi Vatanparvarlik ruhida yoshlarni tayyorlash bo‘yicha direktor o‘rinbosari - harbiy chaqiriqqacha tayyorgarlik rahbari lavozimi tugatilishi munosabati bilan shtat birliklari qisqartirilayotgan xodimlarni O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksida belgilangan tartibda

ogohlantirish choralarini ko‘rsin;

b) mahalliy davlat hokimiyati organlari, hududlardagi tegishli harbiy- ma‘muriy sektor bilan hamkorlikda:

qarorda belgilangan vazifalarni o‘z muddatlarida sifatli bajarilishini ta’minlab borisin;

maktabgacha ta’lim tashkilotlarida “Vatanparvarlik burchagi”ni tashkil etsin;

xalqimizning tarixi va boy madaniyati, buyuk ajdodlarimizning, eng avvalo, sohibqiron Amir Temurning bebaho merosi, Vatanimiz ozodligi va el-yurt tinchligi yo‘lida mardlik va jasorat ko‘rsatgan vatandoshlarimizning qahramonligi asosida, O‘zbekiston xalqiga sodiq, qat’iy hayotiy qarashlar va faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lgan yoshlarni tarbiyalash bo‘yicha uchrashuvlar va davra suhbatlarini tashkil etib borsin.

11. Ta’lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni muvofiqlashtirish boshqarmasi (A.Kamalov), Yuridik boshqarma (O.Ibrohimov) bir oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida Mudofaa vazirligiga takliflar kiritsin.

12. Devonxona (H.Raximbayeva) mazkur buyruqni bir kun muddatda vazirlikning tarkibiy bo‘linmalari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari hamda vazirlik tizimidagi tashkilotlar va muassasalarga yetkazsin.

13. Ushbu buyruqning bajarilishini nazorat qilish vazir o‘rinbosari F.Boqiyev zimmasiga yuklansin.

Vazir **X.Umarova**

Toshkent sh.,
2024-yil 22-noyabr,
373-son

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida jismoniy tarbiya fani o‘qitilishini tubdan takomillashtirish hamda ushbu fan o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatini rivojlantirish chora- tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 15-noyabrdagi PQ-392-son qarori ijrosi haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida jismoniy tarbiya fani o‘qitilishini tubdan takomillashtirish hamda ushbu fan o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 15-noyabrdagi PQ-392-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-noyabrdagi PQ-392-son qarori (keyingi o‘rinlarda - qaror) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

Qaror bilan:

jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilari uchun o‘quv-metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish;

jismoniy tarbiya o‘qituvchilari tarkibiga mahoratli sportchilarni jalb etish;

jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilariga malaka toifasi berishning yangi tartibini ishlab chiqish belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Maktabdan tashqari ta’limni tashkil etish bo‘limi (I.Xoldarova), O‘zbekiston “Yoshlik” jismoniy tarbiya va sport jamiyati (A.Alimov)ga:

2025-yil 1-martga qadar boshlang‘ich, o‘rta va yuqori sinf o‘quvchilari yosh toifasi bo‘yicha harakatli o‘yinlar, olimpiya va ommaviy sport turlariga ustuvorlik berish orqali sport turlari ro‘yxatini shakllantirish;

Sport vazirligi bilan birgalikda 2025-yil 1-iyunga qadar maktab o‘quvchilarining sport musobaqalaridagi ishtiroki, maktab sport klublarining faoliyati, o‘quvchilarni sportga qamrab olinganlik darajasini aniqlash yuzasidan reyting tizimini ishlab chiqish;

reyting natijalariga ko‘ra maktablarning eng yaxshi natijaga erishgan jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilari Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda Sport vazirligining tarmoq mukofotlari bilan taqdirlash bo‘yicha takliflar kiritish;

Sport vazirligi bilan birgalikda 2025-2026-o‘quv yilidan boshlab har yili an’anaviy tarzda maktablar o‘quvchilari o‘rtasida “Besh tashabbus olimpiadasi” sport musobaqalarini tashkil etib borish;

2025-2026-o‘quv yilidan boshlab o‘quvchilarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish maqsadida har bir maktabda bosqichma-bosqich maktab sport klublari faoliyatini yo‘lga qo‘yish.

Bunda:

jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilari tarkibini yuqori mahoratli sportchilar orasidan tanlov asosida shakllantirib borish;

o‘quvchilar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish hamda jismoniy tarbiya va sportni keng targ‘ib qilish, ularning muntazam ravishda jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanishlari uchun shart-sharoitlar yaratish;

sport turlari bo‘yicha o‘quvchilardan iborat jamoalarni shakllantirish, ular o‘rtasida turli sport musobaqalari va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarini, xususan “maktab chempionati”ni tashkil etish orqali iste’dodli yosh sportchilarni aniqlash;

jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini jalb qilgan holda o‘quvchilar orasidan iste’dodli yoshlarni saralab olish (seleksiya) hamda sport maktablari sport zaxirasini shakllantirish;

maktab sport klubi mashg‘ulotlari jarayoniga jamoatchilik asosida malakali trenerlar va mutaxassislarni jalb etish, shuningdek, ilg‘or tajribani joriy qilish vazifalari yuklatilsin.

3. O‘quv jarayonini metodik jihatdan ta’minlash va darsliklar boshqarmasi (D.Norboyeva), Respublika ta’lim markazi (Sh. Xudaykulov) 2025-yil iyun oyiga qadar davlat ta’lim standartlari asosida 5-11-sinflar jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilari uchun o‘quv-metodik qo‘llanmalar ishlab chiqsin va o‘rnatilgan tartibda ta’lim muassasalariga yetkazilishini ta’minlasin.

4. Vazir o‘rinbosari (T.Komilov), Soha infratuzilmasini rivojlantirish departamenti (F.Kushnazarov) Maktabdan tashqari ta’limni tashkil etish bo‘limi (I.Xoldarova) tomonidan taqdim

etilgan talabnomaga asosan Jizzax viloyati hokimligi bilan birgalikda 2025-yil 1-mayga qadar maktab sport klublari a'zolari uchun Zomin tumani "Lochin" dam olish maskanida o'quvchilarni sport musobaqalariga tayyorlash bazasini tashkil etsin.

5. Pedagoglarga malaka toifalarini berish jarayonini tashkil etish boshqarmasi (S.Raximboyev) Sport vazirligi bilan birgalikda:

2025-yil 1-iyulga qadar jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining bilim darajasi va kasbiy mahoratini aniqlash bo'yicha milliy sertifikat berish tizimini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan hamkorlik qilsin;

ikki oy muddatda jismoniy tarbiya fani o'qituvchilariga malaka toifalarini berish bo'yicha yangi tartibini ishlab chiqsin hamda o'rnatilgan tartibda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

6. Axborot xizmati (D.Sobirova) qarorning mazmun-mohiyatini vazirlikning rasmiy veb-sayti hamda ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida yoritish choralarini ko'rsin.

7. Maktabdan tashqari ta'lim bo'limi (I.Xoldarova), Yuridik boshqarma (O.Ibroximov) 2025-yil 15-fevralga qadar qonunchilik hujjatlariga qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Sport vazirligiga takliflar kiritsin.

8. Devonxona (H.Raximbayeva) bir kun muddatda mazkur buyruqni markaziy apparatning tegishli bo'linmalari hamda hududiy maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalariga yetkazilishini ta'minlasin.

9. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o'rmbosari F.Boqiyev zimmasiga yuklansin.

Vazir **X.Umarova**

Toshkent sh.,
2024-yil 25-noyabr,
374-son

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim sohasida xususiy sektor ishtirokini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 22-noyabrdagi PQ-403-son qarori ijrosi haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim sohasida xususiy sektor ishtirokini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 22-noyabrdagi PQ-403-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman**:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 22-noyabrdagi PQ-403-son qarori (keyingi o‘rinlarda - qaror) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qaror bilan:

nodavlat ta’lim tashkilotlari tomonidan pedagogik faoliyatni doimiy asosda amalga oshirish uchun jalb etiladigan xorijiy mutaxassislarga “A-2” o‘qituvchilar kirish vizalarini berish yo‘lga qo‘yilishi;

davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlari tomonidan xorijdan jalb qilingan mutaxassislarga O‘zbekiston Respublikasi hududida mehnat faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi tasdiqnoma berishda undiriladigan yig‘im miqdori bazaviy hisoblash miqdorining o‘ttiz baravaridan bir baravarigacha kamaytirilishi;

nodavlat maktabgacha, umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlarining rahbar va pedagog xodimlari malakasini oshirishni A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, pedagogik mahorat markazlari hamda belgilangan tartibda shakllantiriladigan reyestrga kiritilgan nodavlat malaka oshirish tashkilotlarida Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan amalga oshirish tartibi joriy etilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Litsenziyalash, akkreditatsiyalash va apostil xizmatini ko‘rsatish bo‘limi (S.Maxsudov) qarorning mazmun-mohiyati yuzasidan nodavlat ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish faoliyati bilan shug‘ullanadigan yuridik shaxslar o‘rtasida tushuntirish ishlarini tashkil etsin.

4. Litsenziyalash, akkreditatsiyalash va apostil xizmatini ko‘rsatish bo‘limi (S.Maxsudov) ikki hafta muddatda:

nodavlat ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish faoliyati bilan shug‘ullanadigan yuridik shaxslarga qarorda nazarda tutilgan soliq imtiyozlarini taqdim etish bo‘yicha takliflarni Iqtisodiyot va moliya vazirligiga;

nodavlat ta’lim tashkilotlari tomonidan xorijdan jalb qilingan mutaxassislarga O‘zbekiston Respublikasi hududida mehnat faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi tasdiqnoma berishda undiriladigan yig‘im miqdorini o‘zgartirish yuzasidan takliflarni Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligiga kiritsin.

5. Litsenziyalash, akkreditatsiyalash va apostil xizmatini ko‘rsatish bo’limi (S.Maxsudov), Yuridik boshqarma (O.Ibroximov) ikki oy muddatda qonunchilik hujjatlariga qarordan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risidagi takliflarni o‘rnatilgan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

6. Devonxona (H.Raximbayeva) bir kun muddatda ushbu buyruqni tegishli tarkibiy bo‘linmalarga yetkazsin.

7. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o‘rinbosari S.Radjabov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2024-yil 28-noyabr,
382-son

Bosh muharrir:
Mahmudov Sarvar Yuldashevich

Bosh muharrir o‘rinbosari;
Mas’ul kotib:
Suyarova Lutfiya Muxiddinovna

Bosh dizayner – badiiy muharrir:
Mamasoliyev Akbarali Hamzayevich

TAHRIR HAY’ATI:
Xilola UMAROVA, Risboy JO‘RAYEV, Xolboy IBRAGIMOV, G‘ayrat SHOUMAROV, Ulug‘bek INOYATOV, Oynisa MUSURMONOVA, Shukurullo MARDONOV, Saidaxbor BULATOV, Barno ABDULLAYEVA, Dilyara SHARIPOVA, Lola MO‘MINOVA, Maqsudjon YULDASHEV, Nilufar ISAQULOVA, Mirodiljon BARATOV, Muhabbat MIRSALIYEVA, Bahodir MA’MUROV, Yashin ISMANDIYAROV, Zair TAXIROV, Sharibboy ERGASHEV, Alisher UMAROV, Shaxnoza XALILOVA

JAMOATCHILIK KENGASHI:
Sobitxon TURG‘UNOV, Nargiza RAXMANKULOVA, Kamola RISKULOVA, Muhayyo UMARALIYEVA

Tahririyat manzili:

Toshkent shahar Shayxontohur tumani Navoiy ko‘chasi 30-uy.
E-mail: xalq_talimi@xtv.uz Tel: (0 371) 231-16-51, Faks: (0 371) 231-16-52

Jurnal O‘zMAA tomonidan 2015-yil 3-iyunda ro‘yxatga olinib, 0852-raqamli guvohnoma berilgan.

Buyruq va ularning ilovalari to‘liq, o‘zgartirishsiz chop etilmoqda. Jurnal tahririyatning kompyuter bo‘limida terilib, sahifalandi.

“Sano-standart” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Olmazor tumani Shiroq ko‘chasi, 100-uy.

Bosishga ruxsat etildi: 00. 00. 2020-y. Qog‘oz bichimi 84x108 $^{1}/_{32}$.
Ofset bosma usuli. Shartli b.t. 7,0. Adadi ------ nusxa.
-buyurtma.
Bahosi kelishilgan narxda.

Ushbu songa mas’ul – Suyarova Lutfiya Muxiddinovna

© “Xalq ta’limi axborotnomasi”, 2025.